

O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK MUNOSABATLARI XALQLARIMIZNING BARQAROR TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-iyul kuni davlat tashrifi bilan Boku shahriga keldi.



Poytaxtdagi Haydar Aliyev nomidagi aeroportda davlatimiz rahbarini Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

“Zagulba” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tordii.

Oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev samimiy kutib oldi.

Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida faxriy qorovul davlat rahbarlari oldidan saf tortib o‘tdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tor doirada uchrashuv va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishini o‘tkazdilar.

O‘zbekiston—Ozarbayjon do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida kooperatsiya va almashinuvlarni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz bu galgi davlat tashrifi va Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi

nishonlanayotgan yilda o‘tayotganini alohida ta’kidladi.

— Munosabatlarimiz tarixda hech qachon bugungidek yuksak darajada bo‘lmagan, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Prezidentlar ko‘p qirrali hamkorlik barcha darajalarda jadal rivojlanib borayotganini qayd etdilar. Kuni kecha Xiva shahrida birinchi Parlamentlararo forum bo‘lib o‘tdi. Bokuda Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va Hududlar forumi samarali o‘tdi. Yaqinda Andijonda ilk bor rektorlar forumi tashkil etilib, 60 dan ortiq shartnoma imzolandi. Ozarbayjonning “Shirvon” ansambli Xiva baxshichilik festivali gran-prisini qo‘lga kiritdi.

Iqtisodiy kooperatsiya yilida tovar ayirboshlash hajmi 25 foizga oshdi. Loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetgan. 300 ga yaqin qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar va hududlar darajasidagi amaliy hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi. Xalqaro tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmini yiliga 1 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari atroflicha ko‘rib chiqildi. Sanoat, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, turizm, bank va boshqa sohalaridagi loyihalarni

o‘z ichiga olgan alohida Kooperatsiya dasturi qabul qilinayotgani ta’kidlandi.

Qo‘shma investitsiya kompaniyasi faoliyatini kengaytirish muhimligi qayd etildi. Tadbirkorlar kengashi hamda Sanoat va iqtisodiy zonalar forumi kabi hamkorlikning yangi formatlari qo‘llab-quvvatlandi.

Transport-kommunikatsiya sohasidagi sheriklikka alohida e‘tibor qaratildi. O‘rta yo‘lakni rivojlantirishda ishtirok etish loyihalari muhokama qilindi.

Ushbu yo‘lak orqali tashilayotgan O‘zbekiston yuklari hajmi 25 foizga — 1 million tonnadan ziyodga oshgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bundan tashqari, joriy yil mart oyidan boshlab yuk tashishda elektron ruxsatnomalarga o‘tish ta’minlandi.

Shuningdek, Yevropaga elektr energiyasini eksport qilish bo‘yicha qo‘shma loyihani tayyorlashni jadallashtirishga kelishib olindi.

Diplomatik munosabatlar yubileyini munosib nishonlash maqsadida tomonlar joriy yilning kuzida qator qo‘shma madaniy va yoshlar tadbirlarini o‘tkazishga qaror qildilar.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Majlisda Hukumatlararo komissiya hamraisilari, transport, energetika va madaniyat

vazirlarining muzokaralar kun tartibi yuzasidan hisobotlari tinglandi.

Yig‘ilish yakunlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Boku shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig‘ilishi qarorini qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida qator ikki tomonlama hujjatlar almashildi. Shu jumladan:

- Ittifoqchilik munosabatlarini to‘g‘risidagi shartnomani 2025-2029-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;
- Fan, kasb-hunar va oliy ta’lim sohalarida hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;
- 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan sanoat kooperatsiyasi dasturi;
- 2030-yilga qadar tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish dasturi;
- 2025-2027-yillarda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ta’minoti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha amaliy harakatlar rejasi;
- 2025-2027-yillarda ijtimoiy himoya sohasida hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi;
- Kemachilik va kemasozlik sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayonnomasi;
- Toshkent viloyati va Sumgait shahri, Navoiy va Gabala shaharlari o‘rtasida birodarlik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi kelishuvlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda muzokaralar yakunlari yuzasidan fikr bildirdilar.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida O‘zbekiston Prezident Ilhom Aliyev rahbarligida Ozarbayjonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar va mamlakat erishayotgan yuksak natijalardan chin dildan xursand ekanini ta’kidladi.

— Siz otangiz va har bir ozarbayjonlikning azaliy orzusini ro‘yobga chiqardingiz — mamlakat hududiy yaxlitligini tikladigiz. Qaytarib olingan hududlarning iqtisodiyoti va infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha faol ish olib boryapsiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Ozarbayjon O‘zbekistonning ishonchli ittifoqchisi va strategik sherigi ekanini ta’kidladi. Bizning maqsadlarimiz, qarashlarimiz va intilishlarimiz o‘xshash. Xalqlarimizni azaldan qardoshligimiz va o‘zaro ishonchimiz asosini tashkil etayotgan tarix, qadriyatlar, til va madaniyat bog‘lab turibdi.

Davlatimiz rahbari bo‘lib o‘tgan Oliy davlatlararo kengash ikkinchi yig‘ilishining samarali natijalarini, uning yakunida muhim

qaror va kelishuvlar qabul qilinganini yuksak baholadi.

Bu galgi sammitga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilgani ta’kidlandi. Birinchi Parlamentlararo forum, Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, hududlar va rektorlar forumlari, siyosiy maslahatlashuvlar, qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Muzokarlarda ikki mamlakat o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlarini to‘g‘risidagi shartnomani keng ko‘lamda amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro maydonda yaqin aloqalarni mustahkamlash va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga qat’iy intilish tasdiqlandi. Ko‘plab dolzarb global va mintaqaviy muammolar bo‘yicha pozitsiyalar mos kelishi qayd etildi. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari O‘zbekiston barcha o‘tkir muammo va ziddiyatlarni faqat tinch yo‘l bilan, diplomatik sa’y-harakatlar orqali hal etish tarafdori ekanini ta’kidladi.

Muzokaralar chog‘ida ikki tomonlama savdo va investitsiyalar hajmini yaqin yillarda 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha qo‘shma amaliy choralar ko‘rishga kelishib olindi. Savdo va kooperatsiyani rag‘batlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilindi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikning amaldagi formatlari kengaytiriladi va yangi formatlari yo‘lga qo‘yiladi. Gap Tadbirkorlar kengashini tuzish hamda Sanoat va iqtisodiy zonalar forumini o‘tkazish haqida bormoqda.

Yetakchilar transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirishga alohida ahamiyat qaratdilar. Bugungi kunda mamlakatlarimizni bog‘laydigan va boshqa strategik yo‘nalishlarga chiqish imkonini beradigan O‘rta yo‘lak faol rivojlanayotgani ta’kidlandi. Xususan, bahordan boshlab ushbu yo‘lakda elektron ruxsatnomalar ishga tushirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston yuklarini tashish hajmi 25 foizga oshdi. Ularning yillik hajmi bir million tonnadan ortdi.

Yevropaga “yashil” energiya eksporti bo‘yicha qo‘shma loyihani ilgari surishda erishilgan yutuqlar qayd etildi.

O‘zbekistonda bo‘ljak “Ozarbayjon” bog‘i va noyob “Sea Breeze” sayyohlik majmuasi loyihalari faol tayyorlanayotgani ta’kidlandi.

Joriy yilda ikki qardosh mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanishi munosabati bilan ushbu muhim sanaga bag‘ishlangan yirik tadbirlar, konsertlar va yoshlar forumlarini birgalikda o‘tkazishga kelishib olindi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari hamkorlikka oid qo‘shma loyiha va dasturlarni qo‘llab-quvvatlayotgani uchun ozarbayjonlik hamkasbiga minnatdorlik bildirdi. Ozarbayjonga bu galgi davlat tashrifi natijalari ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga, qardosh mamlakatlar va xalqlarning barqaror

taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Boku shahrida “O‘zbekiston” bog‘iga tamal toshi qo‘yishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Yangi bog‘ poytaxtning nufuzli va jadal rivojlanayotgan “Oq shahar” mavzesidan o‘rin oldi.

Loyihaga ko‘ra, 4,5 gektar maydonda O‘zbekistonning boy madaniyati va an‘analarini namoyish etadigan ulkan majmua barpo etiladi.

Bog‘ hududida yurtimiz me‘moriy obidalari nusxalari, sayilgohlar, yashil hududlar, mehmonxona, turli xil savdo va ko‘ngilochar maskanlar tashkil etiladi. Binolar qurilishi va bezagida o‘zbek milliy me‘morchiligi an‘analari hamda naqshlaridan foydalaniladi.

Marosimda ikki davlat rahbarlari birgalikda bog‘ poydevoriga ramziy kapsula qo‘yib, ushbu muhim loyiha qurilishini boshlab berdilar.

Shundan so‘ng mamlakatimizning Boku shahridagi elchixonasi yangi binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ishtirok etdilar.

Yetakchilar ramziy tasmani kesib, diplomatik vakolatxonaning yangi binosini tantanali ravishda ochdilar.

Davlat rahbarlari diplomatlarning ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan samarali faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Elchixona zallari O‘zbekiston hududlari nomi bilan atalgan. Prezidentimiz xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamijhatlik ramzi sifatida zallardan biriga Qorabog‘ nomini berishni taklif etdi.

Yakunda Prezidentlar elchixonaning Faxriy mehmonlar kitobiga tilaklarini yozib qoldirdilar.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonga davlat tashrifining birinchi kuni yakunida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev hamrohligida “Sea Breeze” dam olish majmuasi faoliyati bilan tanishdi.

Tashrif chog‘ida Kaspiy dengizining g‘arbiy sohilidagi ushbu yirik xalqaro sayyohlik markazi faoliyati haqida taqdimot o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbariga bu yerda yaratilgan sharoitlar, dam olish zonalar, plyajlar, sport maydonchalar, mehmonxonalar, kottejlar va turar-joy majmualari haqida ma’lumot berildi.

Loyiha zamonaviy “Kaspiy rivyerasi”ga aylangan. Kurort qariyb 500 gektar maydonni egallagan. Bu yerda 6,5 kilometrlik plyaj zonasi, 150 gektar maydonda yashil hududlar va dam olish obyektlari mavjud bo‘lib, 700 mingga yaqin daraxt va butalar ekilgan.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

TINCHLIK VA OBODLIK YO‘LIDAGI TINIMSIZ MEHNAT YOZNING BIRINCHI OYI NIMASI BILAN YODIMIZDA QOLDI?

Prezidentimizning iyun oyi ish faoliyati ko‘lami va qamrovini tahlil qilgan uncha-muncha tahlilchining ham boshi aylanib qolsa kerak. Bu qadar tinimsizlik va uzviylik boisi — xalqimiz tinchligi va farovonligi yo‘lida o‘zni fido qilish — yuksak insoniylik hamda rahbarlik namunasidir.

Iyun sarhisobi



Iyun juda katta tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Tabiat qonuniga ko‘ra, kunlar isiy boshlagan bu pallada mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida ham qaynoqlik

kuzatildi. Oyning ilk haftasida mamlakatimiz musulmonlari Qurban hayitini nishonladi. Davlatimiz rahbari bayram munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga tabrik yo‘lladi. Unda



“Bu bayramning insonparvarlik, ahilik, saxovat va olijanoblik kabi fazilatlarini yurtimizda “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu g‘oya asosida

amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga uyg‘un va hamohang bo‘lib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, keksalar, yoshlar va xotin-qizlar haqida alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarimiz samarasini oshirishga xizmat qilayotgani” alohida ta’kidlandi.

Yana bir quvonchli voqea — futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi Osiyoning eng kuchli jamoalari ishtirok etgan jahon chempionatiga saralash o‘yinlarida chinakam jasorat va matonat namunasini ko‘rsatdi. Futbolchilarimiz tom ma’noda ulkan g‘alabaga erishib, Vatanimiz tarixida birinchi marta jahon chempionati yo‘llamasini qo‘lga kiritgani milliy futbolimizda yangi oltin sahifani ochib berdi. Shaharlar, uzoq qishloq’u ovullarda sportsevar va tinchliksevar xalqimiz qalbida chinakam g‘urur tuyg‘ulari jo‘sh urdi.

Davlatimiz rahbari futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolariga yo‘llagan tabrikka yurtimizdagi millionlab sport muxlislari jo‘rovoz bo‘ldi. Milliy sportimiz solnomasidagi bunday yorqin tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yo‘lida yanada birlashtirdi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbaiga, ibrat timsoliga aylandi, yangi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yanada oshirdi.

➤ Davomi 3-beta

IKKI DAVLAT O‘RTASIDAGI HAMKORLIK GLOBAL IQLM MUAMMOLARI SHAROITIDA MUVAFFAQIYATLI MINTAQAVIY SHERIKLIK NAMUNASINI KO‘RSATMOQDA

OZARBAYJON OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘ZBEKISTON HAQIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi arafasida ushbu mamlakatning yetakchi bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va istiqbollariga bag‘ishlangan turkum maqolalar e‘lon qilinmoqda.



Xususan, “525-gazeta” yangiliklar portalida O‘zbekistonning Ozarbayjondagi elchisi Bahrom Ashrafxonov bilan intervyu e‘lon qilindi. Unda diplomat Ozarbayjon

bilan erishilgan sheriklik darajasi va barcha sohalaridagi hamkorlik yutuqlari haqida batafsil so‘zlab bergan.

➤ Davomi 2-beta



2025-yil 3-iyul, 135-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON



Mulohaza

UYG‘OQLIK SHARAFI VA MAS’ULIYATI

O‘zbek davlatchiligining yangi bir tarixi yaratilayotgan ulkan o‘zgarishlar davrida yashayapmiz. Quvonarli, bu tarixni yozish bugungi avlodning taqdiriga bitilgan. Vatanimizda sodir bo‘layotgan olamshumul yangilanishlarning shiddati va ulug‘vor maqsadlari har birimizga jo‘shqinlik, g‘ayrat-shijoat bag‘ishlashi ham shundandir.

Atrofimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilib, ularning asosida “Inson qadri uchun” degan bunyodkor g‘oya mujassam ekanini sezish qiyin emas. Jamiyatimizning a‘zosi bo‘lgan har bir inson bu sa’y-harakatlarning mazmun-mohiyatini tushinishi va bu islohotlar uning kelajakda emas, aynan bugun yaxshi yashashi uchun qilinayotganini chuqur anglashi lozim. Shunday bo‘lsa ham, aynan bugun yaxshi yashashi uchun qilinayotganini chuqur anglashi lozim. Shunday bo‘lsa ham, aynan bugun yaxshi yashashi uchun qilinayotganini chuqur anglashi lozim.

Uyg‘oq odamgina o‘z-o‘ziga savollar beradi, o‘z o‘mini axtaradi, atrofidagi voqealarga befarq bo‘lmaydi va o‘zida jamiyatga daxldorlikni his qiladi. Menimcha, davlatimiz rahbari orzusidagi yangi O‘zbekistonning buniyodkori ham aynan shu — Uyg‘oq odamdirl!

Prezidentimiz tashabbusi bilan axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli sa’y-harakatlar aynan shunday — Vatan taqdirini o‘z taqdiri deb biladigan uyg‘oq shaxsni tarbiyalashga qaratilgan. Shu bois, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatini rivojlantirishga, fuqarolarning so‘z erkinligiga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda. Chunki uyg‘oq shaxs erkin jamiyatdagina kamol topadi va aynan shunday sharoitda o‘z salohiyatini namoyon etishga intiladi, harakatga keladi. Bunda ommaviy axborot vositalari beqiyos o‘rin tutadi. So‘z erkinligi huquqining mavjudligi va rivoji jamiyatda xilma-xillikni yuzaga chiqaradi, fuqarolarning jamiyat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta‘minlaydi.

Oxirgi 7-8 yilda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, ular faoliyatini tartibga solishga doir qonuniy asoslarni takomillashtirish borasida e‘tiborga molik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo‘nalishdagi islohotlar allaqachon muqarrar va ortgaqaytmaydigan ustun bo‘lmagan. Yangilangan Konstitutsiyamizda ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta‘minlash bo‘yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlandi. Ijodiy jamoalarni rag‘batlantirish, shohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan ishlar tizimli xarakter kasb etmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda so‘z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochilgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o‘rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni yurtimizda muhim sana sifatida keng nishonlanib kelayotgani, shu munosabat

bilan O‘zbekiston Prezidentining soha xodimlariga tabrik yo‘llangani va ularning bir guruhini yuksak mukofotlar bilan taqdirlangani ham bu masalaga davlatimizning ustuvor e‘tiborini ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz rahbarining bayram tabrigida atqoli jadid bobomiz Hoji Muinning “Matbuot tarixi — Uyg‘onish davri tarixining bir bo‘lagidir” degan so‘zlari keltirilgani bejiz emas. Milliy yuksalish qayg‘usida yashagan va jonini fido qilgan jadidlar millatni uyg‘otish va jamiyatni harakatga keltirish maqsadini aynan matbuot rivoji bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rishgan. Tarixiy manbalar jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va quloch yozishida matbuot muhim o‘rin tutganini tasdiqlaydi. Jadid bobolarimizning milliy uyg‘onish g‘oyalari aynan matbuot vositasida keng tarqalgan va o‘z tarafdorlarini topgan.

Bugungi kunda ham Uchinchi Renessansga erishish, yangi O‘zbekistonda barpo etishdek ulug‘vor g‘oyalarni odamlar ongiga singdirish, xalqimizni yangi marjalarlarga ruhlantrish va harakatga keltirishda ommaviy axborot vositalaridek ta’sirchan vosita yo‘q. Prezidentimiz o‘z tabrigida global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o‘zgarayotgan hozirgi o‘ta murakkab va notinich dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, globallashuv sharoitida axborot dunyodagi eng qimmat mahsulotga va eng xavfli qurolga aйлandi. Xorijlik tahlilchilardan biri aytganidek, “Dunyo yadro jamonidagi tugmachalar bilan emas, mikrofon oldidagi tugmachalar bilan boshqariladigan bo‘lib qoldi”. Urush maydonlaridagi talafotlardan ko‘ra, axborot xurujlari keltirib chiqarayotgan oqibatlar tobora xavfli va keng ko‘lamli tus olmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘z tabrigida bugungi dunyoda ana shunday tahlilali chaqiriqlar yuzaga kelayotganini qayd etib, soha xodimlari oldidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Xususan, bepoyon media olamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat’iy himoya qilish milliy jurnalistikamizning kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifasi ekanini alohida ta’kidlandi.

Jahonda va mintaqamizda kechayotgan geosiyosiy manfaatlar kurashi shunchalik murakkabki, ommaviy axborot vositalari xodimlari har bir voqea-hodisani tahlil qila olishi, baholashi va har bir axborot ortidagi maqsadlarni teran anglamog‘i lozim. Shunday bo‘lsa ham, aynan bugun axborot vositalari xodimlari kuni yurtimizda muhim sana sifatida keng nishonlanib kelayotgani, shu munosabat

tabrigida jurnalist ahlining mashaqqatli mehnati muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatan posbonlarining jasoratiga qiyoslangani xuddi shu yondashuvdan kelib chiqib qabul qilish lozim bo‘ladi.

“To‘rtinchi hokimiyat” vakillari yangi O‘zbekistonning taraqqiyot modelini, o‘ziga xos islohotlar yo‘lini va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning asl mohiyatini puxta bilishi hamda qiyosiy tahlil qila olishi zarur. Aynan shu jihatlar milliy manfaatlarimizga mos keladigan milliy kontent yaratish salohiyatini yuzaga chiqaradi. Shuningdek, bugungi jurnalistdan professional bilim va mahoratni uzluksiz oshirib borish, axborot tarqatishning zamonaviy usullarini va shiddat bilan rivojlantayotgan sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘zlashtirish talab etiladi.

Davlatimiz rahbarining tabrigida mamlakatimizda so‘nggi yillarda yetishib kelayotgan o‘z kasbini, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarni puxta egallagan, jonkuyar va vatanparvar yangi jurnalistlar avlodiga katta ishonch va umid bor. Bir so‘z bilan aytganda, ommaviy axborot vositalari xodimlari jamiyatning Uyg‘oq vijdoniga aylanishi bugungi kunning qat’iy talabi. Biz taraqqiyotimizga raxna solayotgan turli illatlar, muammolar va korupsiya balosi haqida har doimgidan-da balandroq va kuchliroq bong urishimiz dardkor.

Jamiyatni yangi marjalarlari sari ruhlantrimoqchi va odamlarni uyg‘otmoqchi bo‘lgan insonlarning o‘zi, eng avvalo, uyg‘oq va sergak bo‘lishi kerak. Shu ma’noda, murakkab davrning o‘zi bugungi kun jurnalisti zimmasiga O‘zbekiston tarixining avvalgi hech bir davrida kuzatilmagan tarixiy zaruratni yuklamog‘da.

Kamtaron xizmatim uchun Prezidentimiz tomonidan berilgan “Do‘stlik” ordenini qabul qilib olarkanman, mana shu savolni yuki ichimdan his qildim. Bu yuksak e’tirofni, eng avvalo, kelgusida qilishim zarur bo‘lgan va mendan kutilayotgan katta ijodiy ishlar uchun rag‘bat deb bildim. Ijodkor qadrlaydigan shunday betakror yurtning farzandi ekanimdan faxr tuydim. Hayajon silsilasida yangi rejalar tug‘ildi. Matbuot kotibi sifatida oldimga o‘zim ishlayotgan tashkilot faoliyatida yanada ochiqlikni ta‘minlash, keng jamoatchilik va murojaatlar bilan ishlashga doir zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish bo‘yicha yangi maqsadlarni qo‘ydim.

Vatanimiz erishayotgan tarixiy zafarlar ijod ahl uchun tuganmas ilhom baxsh etmoqda. Qo‘lida qalam tutgan har bir jurnalist uchun ma’rifiy uyg‘oqlik sharaflari va mas’uliyatini yurakdan his qilgan holda, doimiy faol va o‘ziga talabchan bo‘lish, axborot makonida milliy manfaatlarimizni qat’iy himoya qilish nafaqat kasbiy vazifa yoki zarurat, shuningdek, chin farzandlik burchi va vijdon ishidirl!

Shuhrat ORIPOV,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

Boshlanishi 1-betda

Intervyuda O‘zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi global iqlim muammolari sharoitida muvaffaqiyatli mintaqaviy sheriklik namunasini ko‘rsatayotgani qayd etilgan.

“So‘nggi yillarda xalqaro konferensiyalarda, jumladan, MDH, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham faol tajriba almashilmoqda. Bu hamkorlik yuqori darajadagi vazirlar uchrashuvlari, delegatsiyalar almashinuvi va muhim xalqaro forumlarda birgalikda ishtirok etish orqali mustahkamlanyapti. 2023-2024-yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon vakillari iqlim bo‘yicha bir qator muhim tadbirlarda ishtirok etdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi (COP28 va COP29) ishtirokchilari konferensiyasining 28 va 29-sessiyalarida ishtirok etishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi”, deya ta’kidlaydi mamlakatimiz elchisi.

O‘zbekiston rasmiy vakili, shuningdek, yoshlar va ta’lim sohasidagi tashabbuslarni

ekologik ta’lim va xalqaro hamkorlik sohasidagi qo‘shma qadamlar tabiatni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan kengusi hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi”.

Ozarbayjonda ommabop bo‘lgan “Turkic World” yangiliklar portali ikki tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo‘nalishlari va uning natijalariga bag‘ishlangan “O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga tahilliy yondashuv” sarlavhali maqolani o‘z o‘quvchilari e’tiboriga taqdim etdi.

Nashrda so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning strategik xususiyatini aks ettirgan holda jadal rivojlanib borayotgani ta’kidlangan. “Ikki mamlakat tovar ayirboshlash hajmini faol oshirib, o‘zaro yetkazib berish turlarini, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, neft-kimyo va mashinasozlik sohalarida kengaytirayapti”, deyiladi materialda.

Maqolada o‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan. “So‘nggi 8-yil ichida tovar

ilmiy-tadqiqot institutlari va tadbirkorlik subyektlari bilan 20 dan ortiq uchrashuvlar o‘tkazildi. O‘rganish davomida 18 ta tarmoq bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazildi, jumladan, asosiy ko‘rsatkichlar, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, investitsiya salohiyati, tovarlarning qiyosiy afzalliklari va asosiy islohotlar o‘rganildi”, deya qayd etilgan manbada.

Ta’kidlanishicha, 2024-yil noyabr oyida Ozarbayjon delegatsiyasining O‘zbekistonga javob tashrif tashkil etildi. Tashrif doirasida davlat organlari, maxsus iqtisodiy zonalar, tadbirkorlik subyektlari va oliy ta’lim muassasalari vakillari bilan 14 ta uchrashuv o‘tkazildi.

“Ikki tashrifdan so‘ng bildirilgan takliflar kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi” loyihasiga kiritish uchun ko‘rib chiqilmoqda. Shunday qilib, tahlil doiralarning o‘zaro tashriflarining sinovdan o‘tgan modeli allaqachon amaliy tahlilni institutsionallashtirish hamda sanoat va raqamli rivojlanishni jadallashtirish namunasiga aylanib bormoqda”, deya urg‘ulangan “Turkic World” maqolasida.

Mazkur davlatning yetakchi bosma nashrlaridan biri — “Yeni Safak” gazetasida chop etilgan maqolada O‘zbekiston va Ozarbayjon yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan va iqtisodiyotlar uchun sezilarli darajada foyda beruvchi ishlab chiqarish tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni izlash va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratayotgani ma’lum qilingan.

“Bu yo‘nalishda O‘zbekistonda rivojlangan to‘qimachilik va tikuvchilik tarmog‘i tufayli katta talabga ega bo‘lgan yangi uglevdorod mahsulotlari, masalan, sintetik gazlamalar, shuningdek, keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uglerod tolasini qo‘shma ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish istiqbolli ko‘rinadi”, deb ta’kidlangan materialda.

Shuningdek, agrosanoat, transport, savdo, turizm, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamkorlik istiqbollari batafsil tahlil qilingan.

Maqola “O‘zbekiston va Ozarbayjon tajribasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va tadbirkorlik amaliyotining yaqin integratsiyasi nafaqat hamkorlikni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini belgilash, balki ularni davlat darajasida muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi”, degan so‘zlar bilan yakunlangan.

“Dunyo” AA
Boku

Kattalar yaxshi eslaydi: 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida Toshkentda uy olish oddiy odamlar uchun ushalmas orzu edi. O‘sha paytlarda ikki-uch xonali tor kvartlarda bir necha oila tiqilib, boriga qanoat qilib yashaganiga guvohman.

O‘sha kezlari bir ustozim aytardi: “Uylar qurilaversa-ku, yaxshi. Menga ham biror kuni xonadon nasib qilib qolar deb odam o‘ziga o‘zi tasmin berishi mumkin. Afsuski, viloyatlarni qo‘ya turing, hatto azim poytaxtda ham uy-joy qurilmayapti”.

Ha, xalqni uy-joy bilan ta‘minlash, yaxshi yashashi uchun sharoit yaratish, kichik vatanli qilish masalasi negadir o‘sha paytlarda davlat va hukumatning kun tartibida yo‘q edi. Aholi ko‘payishi, boz ustiga, “propiska” singari byurokratik to‘siqlarga qaramay, ishsizlik va yaxshi yashash ilinjida odamlar qishloqdan shaharlarga ommaviy ko‘cha boshladi. Bu esa ipoteka bozoridagi narxlarning muttasil ko‘tarilishiga olib keldi. Talab keskin oshib borayotgan bir sharoitda taklif yo‘qligi o‘tkir ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirib chiqardi. Bu odamlarning o‘sha paytdagi kayfiyatiga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Boisi, ijarama-ijara ko‘chib, sarson yuradigan, muqim uy-joyi yo‘q odamning hayotida halovot bo‘lmaydi. Ertangi kunga ishonchi so‘nib, ko‘nglini xavotir va tushkunlik egallashi tabiiy. Bunday holatlar 2000-yillar boshidagi haqqoniy holat edi.

Orzuga bir qadam

Bugun vaziyat butkul o‘zgacha. Davlatning ijtimoiylashuvi, xalqqa yaqinlashuvi, xalq-ni yillar mobaynida qiyin kelayotgan muammolar yechimiga kirishilgani, shoir aytganidek, yelkamizga oftoab tekkan bo‘ldi.

Yaxshi eslayman: 2017-2018-yillarda Sergeli tumaniga yondosh hududda juda qisqa muddatda baland-baland turar joy komplekslari qad ko‘tara boshladi. Bu xonadonlarga uysiz oilalar ko‘chib kirdi. Uy-joy sotib olish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Ipoteka krediti maqbullashtirilishi oddiy odamlarning ham uy olishiga imkon berdi.

Jumladan, so‘nggi 5 yilda umumiy 21,7 million metr kvadrat maydonga ega ko‘p xonadonli uy-joylar barpo etildi. Aholining



uy-joy sotib olishiga ko‘maklashish uchun 67 trillion so‘mlik ipoteka krediti ajratildi. Ushbu maqsadda davlat budjetidan 44 trillion so‘m yo‘naltirildi. Daromadi yuqori bo‘lmagan 64 mingdan ortiq fuqaroga 3,5 trillion so‘mdan ortiq subsidiya to‘lab berildi.

So‘nggi yillarda aholi soni yiliga qariyb 800 mingga, yangi oilalar soni esa 300 mingtaga ortayotgani uy-joyga talabni qondirish bo‘yicha ishlarini jadallashtirishni taqozo etmoqda. Shuningdek, mamlakatdagi ko‘p kvartirali uy-joy fondining qariyb 40 foizini tashkil etayotgan 2-3 qavatli uy-joy o‘rniga yuqoriga (vertikal) o‘stirish tamoyili asosida ijtimoiy soha obyektlari va yashil maydonga ega zamonaviy uy-joylar qurish uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud.

Endi sizni hech kim alday olmaydi

Uy-joy qurilishi bozoriga xususiy sektorning keng jalb etilishi sohada haqiqiy raqobatning shakllanishiga turtki berdi. Hozir nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki ko‘cha-ko‘yda,

OAVlarda “Arzon va qulay shartlarda xonadon sohibiga aylaning” mazmunidagi reklamalarga ko‘zingiz tushadi. Bundan ipoteka bozorida talabdan ko‘ra taklif ko‘payganini anglash mumkin. Chunki quruvchi xonadonini sotish uchun reklama berishga majbur bo‘lyapti. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga ko‘ra, bu holatda raqobat mexanizmi ishlayapti. Raqobat bor joyda esa sifat ham yaxshilanadi, taklif ham ko‘payadi. Qolaversa, uy qurib sotish tadbirkorlarga katta foyda keltirmoqda. Istiqbolli sohalariga investitsiya oqimi esa hech bir imtiyoz va yengilliklarisiz ham kengayib boradi.

Prezidentimiz raisligida o‘tgan yili 23-sentabr kuni qurilish industriyasi va qurilish materiallari tarmog‘ini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida uy-joylar qurilishida aldov va tushunmovchiliklarga barham berish uchun uy-joy sotib olish bo‘yicha kafolati “eskrou” tizimi joriy qilinishi ma’lum qilindi.

Bunda developerlar o‘zi qurayotgan uylar savdosini tashkil qilish bo‘yicha banklar bilan shartnoma tuzadi. Xonadon olmoqchi

bo‘lganlar pulini quruvchiga emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri bankka topshiradi. Banklar esa yig‘ilgan pulni quruvchiga resurs sifatida beradi. Ya’ni banklar quruvchi va xaridor o‘rtasida “ko‘prik” vazifasini o‘tab, uy-joy-ni o‘z vaqtida va sifatli qurib, egasiga topshirishga kafil bo‘ladi.

Xo‘sh, “eskrou” nima o‘zi? Bu tizim uy-joy quruvchilar bilan qurilishi tugallanmagan uylarni sotib oluvchilar o‘rtasida hozir uchrayotgan qanday muammo va nizolarga yechim bo‘la oladi? Prezidentimizning joriy yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida shu yil 1-iyuldan uy-joy sotib olishda “eskrou” tizimi joriy qilinishi belgilab qo‘yildi.

“Eskrou” inglizchadan olingan bo‘lib, “pul yoki mol-mulkinni saqlash” degan ma’noni anglatadi. Buning mohiyati ish yoki xizmatning buyurtmachisi yoxud tovar oluvchisi tomonidan to‘langan pul, ikkinchi tomondan o‘z majburiyati zarur darajada bajarilmagunga



qadar to‘langan mablag‘ muzlatilgan holda uchinchi shaxs tomonidan saqlanishini nazarda tutuvchi huquqiy mexanizm.

Bunda ishni bajaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi tovarni topshirgach yoxud ishini bajargach, xizmat yoki mahsulot haqini ololmaslik xavfi kamayadi. O‘z navbatida, ikkinchi tomonda ham pulni to‘laganidan so‘ng ish, xizmat yoki mulkdan quruq qolish xavfi yo‘qoladi.

Yangi tartib kuchga kirmoqda

Davlatimiz rahbarining mazkur qarori asosida mamlakatimizda qurilish sohasini uy-joylarni loyihalashtirishdan tortib, foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan bosqichlarda kompleks tartibga solish, uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash maqsadida tizimda qator yangi tartiblar joriy qilinmoqda.

Jumladan, “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyili doirasida obyektlarni ulush kiritish asosida qurish jarayonida ulushdorlarning huquqlari himoya qilinadi. Obyektlarni qurishda qurilish-pudrat tashkilotlari, developerlar va buyurtmachilari tomonidan ulushdorlarning pulini qurilishga ulush kiritish asosida jalb qilish faqat notarial tasdiqlangan va kadastr organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan obyekt qurilishida ulush kiritish asosida ishtirok etish shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ulushli shartnoma bo‘yicha mablag‘lar ulushdor tomonidan vakolatli tijorat bankida quruvchi, ulushdor va tegishli tijorat banki o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida ochilgan “eskrou” hisobvarog‘iga ularning hisobini yuritish uchun joylashtiriladi va deponentlanadi. Obyektni qurish ishlarini moliyalashtirish quruvchining o‘z mablag‘lari, tijorat banklari tomonidan loyihaviy moliyalashtirish orqali ajratiladigan kredit mablag‘lari va qonunchilikda taqdiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-dekabrga qadar “eskrou” hisobvaraqlari hamda hozir amalda bo‘lgan ulushli ishtirok etish tartibida to‘g‘ridan to‘g‘ri jalb qilish mexanizmi taraflarning tanloviga ko‘ra parallel amal qiladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab faqat “eskrou” hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.

Hozir qurib yetgan ham, yetmagan ham, qurilishni tushungan ham, tushunmagan ham ko‘p qavatli turar joy qurishga kirishib ketdi. Hali poydevori qo‘yilmagan uylar uchun odamlar topgan-tugtangani topshirdi. Guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, bunday vaziyatlarda firibgarliklar ham ro‘y berdi. Ko‘p lab fuqaro firibgarlarning shirin aldoviga uchib, puliga kuyib qolgan ham bor gap.

Shu yil 1-iyuldan kuchga kirgan yangi tartib esa uy-joy qurilishi bozoridagi bunday aldov va yolg‘onlarga barham beradi. Quruvchi ham, oluvchi ham to‘liq o‘z majburiyatini bajarishi kafolatlanmoqda.

Yunus BO‘RONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TINCHLIK VA OBODLIK YO‘LIDAGI TINIMSIZ MEHNAT

YOZNING BIRINCHI OYI NIMASI BILAN YODIMIZDA QOLDI?



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: ushbu marraga yetishishimizga nimalar asos bo‘ldi? Ma‘lumki, Prezidentimizning 2018-yil 16-martdagi qarori bilan 2018-2022-yillarda futbolni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. Iste‘dodli yoshlarni tanlash, keyinchalik professional etib tayyorlash hamda milliy terma jamoalar zaxirasini yaratish maqsadida 14 ta hududda bolalar va o‘smirlar futbol akademiyalari tashkil etildi. Mashg‘ulot va musobaqalar sifati oshdi. Murabbiylar, hakamlar va boshqa mutaxassislarga e‘tibor kuchaydi.

2019-yil 4-dekabrda Prezidentimiz “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzoladi. Unda klublar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash, terma jamoalarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonini zamonaviy tashkil etish, mamlakatimizda nufuzli musobaqalar o‘tkazish maqsadlari belgilangan edi. 2023-yil 8-aprelda qabul qilingan ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga oid Prezident qarori ham bu yo‘lda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday e‘tibor va tizim tufayli birin-ketin natijalar kela boshladi. Mamlakatimiz nomini mundial yo‘llanmasiga yozib qo‘yishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan bir guruh yurtdoshlarimizning davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi esa barchaning ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Davlatimiz rahbari “Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a‘zolari va murabbiylaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi.

10-iyun kuni “Bunyodkor” stadioniga tashrif buyurgan ko‘pmillatli xalqimizning minglab vakillari Prezidentimiz bilan birga futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasining Qatar jamoasiga qarshi o‘yinini tomosha qildi. Jahon chempionati saralash bosqichining so‘nggi uchrashuvi oddiy o‘yin emas, o‘zbek futbolining katta bayramiga aylanib ketdi.

Shu kuni davlatimiz rahbari qahramon sportchilarimizga “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun”, “Do‘stlik”, II darajali “Salamatlik” ordeni, “Sog‘lom turmush”, “Shuhrat” medallarini topshirdi. Shuningdek, terma jamoamiz a‘zolari va mutaxassislariga avtomobillar sovg‘a qilindi.

Do‘sting kimligini ayt...

Xalqaro hamkorlik bobida ham semahsul uchrashuv va muloqotlar, kelishuv va o‘zaro sheriklik bo‘yicha ilg‘or qadamlar tashlandi. “Al Mirqab Capital” kompaniyasi boshqaruvi raisi Hamad bin Jassim Ol Soniy, “Blackrock” investitsiya kompaniyasi katta boshqaruvchi direktori Adebayo Ogunlesi, Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan BRICS Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef, Yevropa tikanlash va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining amaldagi raisi, Finlyandiya tashqi ishlar vaziri Elina Valtonen, “Euronews” media xoldingi direktorlar kengashi raisi Pedro Vargas boshchiligidagi nufuzli delegatsiyalar davlatimiz rahbari qabulida bo‘ldi.

“Do‘sting kimligini ayt, men senga kimligingni aytaman”, degan maqol bor. Shu ma‘nodda, bir-birini do‘st deb qabul qilgan tomonlar o‘rtasidagi muloqotlar davomida har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamda beg‘araz hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish, O‘zbekiston bilan nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar o‘rtasidagi strategik hamkorlikni yanada kengaytirish va boshqa ko‘plab muhim masalalar ko‘rib chiqildi.

Masalan, “Euronews”dek yetakchi kompaniya bilan hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, O‘zbekistonning boy madaniy-tarixiy merosi, mamlakatda ro‘y berayotgan muhim siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, shuningdek, investitsion va turizm salohiyat to‘g‘risida uning keng auditoriyasini kengroq xabardor qilish masalalari kelishib olingani, shu asosda ayni kunlarda Toshkent shahrida yangi vakolatxonasi ochildigani ikki tomon uchun ham birdek manfaatlidir.

Iyunning birinchi dekadasiida Prezidentimiz taklifiga binoan Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitso va Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi. Har ikki mamlakat yetakchilari bilan bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralarda ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ustuvor yo‘nalishlar — savdo, investitsiya va innovatsiyalar, qishloq xo‘jaligi, sanoat, energetika, turizm sohalarida sheriklikni

kengaytirishga alohida e‘tibor qaratildi. Xalqaro ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, ko‘p tomonlama maydonlarda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, yetakchilarning muzokaralari, rasmiy va ishbilarmonlik tadbirlari, qator ikki tomonlama bitimlar imzolash marosimlari kun tartibidan joy oldi.

Tashrif doirasida Slovakiya Bosh vaziri va Bolgariya Prezidenti IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etdi. Mazkur tadbir hamda undan so‘ng o‘tkazilgan Xorijiy investorlar kengashi majlisida davlatimiz rahbari nutq so‘zlandi.

Har yerda milliy manfaat ustuvor

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan “Markaziy Osiyo — Xitoy” ikkinchi sammitida ishtirok etdi. Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan tadbir kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni ustuvor yo‘nalishlarda kengaytirish istiqbollari, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar ko‘rib chiqildi.

Aytish kerakki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan tovar ayiriboshlash hajmi ortib borayotir. joriy yilda bu ko‘rsatkich 100 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida 2023-yilda Sian shahrida o‘tgan birinchi sammitdan so‘ng “Markaziy Osiyo — Xitoy” formatidagi hamkorlikda katta muvaffaqiyatlarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

— Bizingcha, bir tomondan, ishonch, yaxshi qo‘shinchilik va sheriklik makoniga aylangan Markaziy Osiyoning o‘zidagi chuqur transformatsiya jarayonlari, boshqa tomondan, Xitoy rahbariyatining qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish va “Belbog‘ va yo‘l” global konsepsiyasini ilgari surishga qat‘iy sodiqligi ushbu formatdagi hamkorlikning rivojlanishiga imkon bermog‘da, — dedi davlatimiz rahbari.

So‘ng Prezidentimiz mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini bayon qildi. Avvalo, bu galgi uchrashuv xalqaro vaziyat sezilarli darajada yomonlashgan bir sharoitda o‘tayotgani ta‘kidlandi. Raqobatning ortishi keskinlikning zo‘rayishiga, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga uyari xavf va tahdidlar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

— Nizoli xalqaro masalalar va ziddiyatli muammolarni hal qilish uchun kuch ishlatish vositalaridan foydalanish o‘zini oqlamaydi va bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi deb hisoblaymiz, — dedi Prezidentimiz. — Barcha zina va ziddiyatlar suverenitetni hurmat qilish, xalqaro huquq me‘yorlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi asosida faqat diplomatik sa‘y-harakatlar yo‘li bilan — muzokaralar stolidal hal etilishi shart.

Shu munosabat bilan sammit davomida mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashga umumiy hissa qo‘shadigan Abadiy yaxshi qo‘shinchilik, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomaga qabul qilinishi tarixiy ahamiyatga ega ekani ta‘kidlandi. Ushbu shartnomani rivojlantirish maqsadida aniq mexanizm va loyihalarni kiritgan holda Uzoq muddatli sheriklik konsepsiyasini ishlab chiqish taklifi etildi.

O‘zbekiston yetakchisi iqtisodiy salohiyatni samarali ro‘yobga chiqarish uchun sanoat va infratuzilmaviy o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish zarurligiga alohida to‘xtaldi. Shu maqsadda “Markaziy Osiyo — Xitoy” sanoat va infratuzilma makoni” uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Xitoy investitsiyalari, texnologik va ilmiy yechimlarini jalb qilgan holda, o‘zaro bog‘langan sanoat klasterlari, texnoparklar va logistika xabarlari tizimini yaratish shular jumlasidan.

Oradan hech qancha fursat o‘tmay, davlatimiz rahbari Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Mo‘g‘uliston Davlat saroyida ikki mamlakat yetakchilarining tor



doiradagi va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchisi bo‘lgan ushbu tashrif ko‘p qirrali O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston aloqalarini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berishini ta‘kidladi. Do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirishning dolzarb masalalariga e‘tibor qaratildi.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarga asoslangan, so‘nggi yillarda mazkur hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ikki o‘lka yetakchilarining itilishi mavjud aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, mintaqaviy hamkorlik va taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.



Xalqaro ekspertlar ham 24-25-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan mazkur tashrif yukunlari va O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston munosabatlarning zamonaviy holati, istiqbolli hamda ahamiyati xususida ko‘plab chiqishlar qildi. Masalan, siyosiy tahlilchi Adiyakhu Batbazar (Mo‘g‘uliston) shunday deydi:

— Iqtisodiyoti bo‘yicha mintaqada yuqori o‘rinda turuvchi O‘zbekistonnii ayrim tahlilchilar “Beshinchi Osiyo yo‘lbarsi” deb atayotgani bejiz emas. Olib borilayotgan islohotlar mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, xalqaro maydondagi ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan. Qisqa vaqt

ichidagi bu muvaffaqiyatlarning o‘z omillari bor, albatta. Inson resurslari salohiyati bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Shu bilan birga, rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi ayrim omillar ham mavjud. Mamlakat dengizga chiqa olmaydi, ikki-uch davlat hududi orqali dengizga chiqish imkoniga ega dunyodagi ikki davlatdan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun transport tizimini 2035-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha strategik siyosat ishlab chiqilib, mahalliy mahsulotlarni imkon qadar tezroq dengiz portlariga yetkazadigan transport yo‘laklari yaratishga alohida e‘tibor qaratilyapti.

Mas‘uliyatni oshirish — muvaffaqiyatga erishishning ishonchli yo‘li

Bugun O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar mamlakat taraqqiyoti, jamiyat farovonligi va fuqarolar hayotini yaxshilashga qaratilgan. Islohotlarning samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishi esa, avvalo, ijro intizomiga bog‘liqdir. Shu jihatdan qaralganda, ijro intizomi islohotlarning muvaffaqiyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz railsigida 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiyayotgan masalalar tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ijro intizomini mustahkamlash, aholi muammolari bilan ishlash bo‘yicha yangi tizimni yo‘lga qo‘yish masalalari diqqat markazida bo‘ldi. Endi ijro intizomiga Hisob palatasi mas‘ul bo‘lishi, uning vakolatlari kengaytirilib, berilgan mablag‘larning faqat to‘g‘ri sarflanishi emas, balki nima samara bergani, aholi bundan qanchalik rozi bo‘lgani ham o‘rganilishi ta‘kidlandi.

Qonun ijrosi bilan mukammal. Vazirlar, hukumatdagi mas‘ullar tartib-intizomga qattiq e‘tibor bermagani uchun islohotlar ijrosi cho‘zilib ketayotgani tanqid qilindi.

Vaziyatni keskin ijobiy tomonga o‘zgartirish maqsadida Toshkent shahrida o‘zini oqlagan “Xalq nazorati” elektron portali butun respublikada ishga tushirildi. Bu tizim murojaatlarining yagona platformasi bo‘ladi va unga barcha vazirlik, idora, hokimliklar ulanadi. Prezidentimiz aholingand dardu tashvishlarini eshitib, odamlarga sharoit yaratib berish rahbarlarning asosiy vazifasi ekanini qayd etdi.

— Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda hududlarda bandlikni ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish, investitsiya va eksport hamda muhitni yaxshilash masalalariga e‘tibor qaratildi. Soliq ma‘murchiligini yaxshilab, aholi tadbirkorligi va ish o‘mi yaratishni qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta‘kidlandi.

Mahallalarga suv olib borib, meva-sabzavot yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalar orqali eksportni ko‘paytirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tildi. O‘rmon va yaylovlardan chorvachilikda foydalanib, go‘shat va sut mahsulotlarini ko‘paytirish, oziq-ovqat inflyatsiyasini jilovlash chora-tadbirlari belgilandi.

yetdi. Endi bo‘sh turgan 1,3 million gektar yaylov va o‘rmon yeri ishga solinadi. Investitsiya jalb qilinib, loyihalar moliyalashtiriladi. Shuning hisobiga ikki yilda viloyatdagi kamida 200 ming gektar yer lazerli tekislab, suv tejovchi texnologiyalar joriy etiladi.

— Qashqadaryoda rejalashtirgan ishlarimiz ko‘p. Amir Temurdek buyuk ajdodimizdan jasorat, matonat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni meros qilib olgan mehnatsevar, samimiy va olijanob viloyat ahli bilan oldimizga qo‘ygan ulkan marralarga albatta erishamiz. Aminmanki, qashqadaryoliklar barcha islohotlarimizning oldingi safida bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Fikr aytish va yetkazish mas‘uliyati bilan...

27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni mamlakatimiz qalam ahli o‘z kasb bayramini nishonladi. Sana arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlash, so‘z va matbuot erkinligi, ochiqlik tamoyilini mustahkamlashga qo‘shayotgan munosib hisssasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yangi O‘zbekistonda erishilayotgan ulkan yutuqlarni keng targ‘ib etishdagi katta xizmatlari uchun soha fidoyilaridan bir guruhi davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘ldi.

An‘anaga ko‘ra, Prezidentimiz Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrik yo‘lladi. Unda qalam ahli faoliyati yuksak baholalanib, “Hech shubhasiz, ommaviy axborot vositalari xodimlarining mashaqqatli mehnatini qadrlash, ijodiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash bundan buyon ham yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi”, deya tilak bildirildi.

Mamlakatimiz jurnalistlari va ijodiy jamoalari tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, bu yil “Oltin qalam” milliy mukofoti birinchi marta 27-iyunda — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida topshirildi. Xalqaro tanlov g‘olibi va sovrindorlari nomini e‘lon qilish hamda taqdirlash marosimi muhtasham “O‘zbekiston” forumlar saroyida yuksak saviyada tashkil etildi.

Gap matbuot va ommaviy axborot vositalari haqida borar ekan, davlatimiz rahbarining “Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormog‘da. Bu esa mazkur yo‘nalishda aynan sizlardek jasur va duryovrak, Vatanni chin dildan sevadigan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko‘proq bo‘lishini taqozo etmoqda”, degan fikrlarni keltirib o‘tish joiz.

Darhaqiqat, yangi O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar sabab jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirishda OAVlariga jiddiy e‘tibor berildi. Natijada davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati uzidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o‘rganish va hal qilish borasida milliy matbuotimiz muhim o‘ringa ega bo‘ldi.

Yangi tarix yaratayotgan oltin avlod

30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazdi va ushbu qutlug‘ ayym bilan ularni tabrikladi, yoshlarga imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

— Birinchi va ikkinchi Renaissance buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermog‘da. Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar — yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz, — deya ta‘kidladi davlatimiz rahbari.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatini xalqaro hamjamiyat ham keng e‘tirof etmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Yoshlar — 2030” strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kiradi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu davlat eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bir deb topildi.

Buxoro shahri — Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, Toshkent shahri — Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi yoshlari poytaxti maqomini oldi.

Shu kunlarda yurimizda Global yoshlar festivali bo‘lib o‘tmog‘da. Ushbu forum nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo yoshlari uchun samarali hamkorlik va o‘zaro tajriba almashish maydoni bo‘lishi qayd etildi.

Prezidentimizning 28-iyundagi farmon va qaroriga muvofiq, yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida bir guruh ilg‘or yigit-qizlar “Kelajak bunyodkori” medali hamda “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi. Uchrashuvda ana shu mukofotlar o‘z egalariga topshirildi.

Davlatimiz rahbari yoshlarning bilim va iqtidorini e‘tirof etib, ular bilan g‘ururlanishini ta‘kidladi: “Sizlarning har bir yutug‘ingiz — butun xalqimizning yutug‘idir. Azmu shijo‘tingiz, sog‘lom dunyoqarashingiz, baxtu iqbolingiz — millionlab ota-onalar, ustoz-murabbiylar, yaqinlaringizning har baxtu saodatidir”.

Yurtimiz boʻylab har oyning toʻrtinchi chorshanbasida “Avtomobilsiz kun” aksiyasi oʻtkazilayotganiga ham bir yildan oshdi. Ijtimoiy loyiha Prezidentning tegishli farmoni bilan oʻtgan yilning mart oyidan buyon tashkil etib kelinmoqda. Tashabbusdan koʻzlangan maqsad hech boʻlmaganda oyda bir kun shaxsiy avtomobildan foydalanmaslik orqali atrof-muhitni asrashga hissa koʻshishdir. Yaʼni shu kuni davlat tashkilotlari rahbarlari va xodimlari, shuningdek, barcha fuqarolarga shaxsiy avtomashinalardan voz kechib, jamoat transportida harakatlanish, piyoda yurish, velosiped va ekologik toza boshqa harakat vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Mohiyatan olib qaraganda, bu tashabbus oʻzimiz uchun, salomatligimiz va atrof-muhitni asrash maqsadida ilgari surilyapti. Demak, unda ishtirok etish ham oʻzimizga foyda. Ammo foyda deganda aynan nima nazarda tutilayotganini tushuntirish orqali targʻib etish muhim masala. Yaʼni sanadan bir kun oldin “Ertaga avtomobilsiz kun” degan chorlovning oʻzi kamlik qiladi. Odamlar bu kun nima uchun zarurligi, shaxsiy avtomobilini uyida qoldirish orqali nimaga hissa koʻsha olishi, ulovlardan chiqayotgan zararli gazlar atmosferaga qanchalik ziyon yetkazayotgani haqida tasavvurga ega boʻlsagina, tomoshbinga emas, balki tashabbuskorga aylanadi.

Gap har oyda “Avtomobilsiz kun” aksiyasi yurtimizning barcha hududlari markazlarida oʻtkazilayotgani, biroq odamlar orasida yetarlicha ommalashmayotgani haqida boryapti. Tadbir iyun oyining toʻrtinchi chorshanbasida ham oʻtkazildi. Har holda aksiya haqidagi xabarlar koʻzim tushdi. Oʻsha kuni koʻchalarni atay kuzatdim, ammo mashinalar harakati odatdagidek. Deyarli sityraklashmagan, avtoturargohlar ham ulovlar bilan toʻla.

Tadbirda oid maʼlumotlarni izlaganimda, asosan, aksiya oʻtkazilish sanasi toʻgʻrisidagi xabar va unga ilova qilingan tadbir maqsadi haqidagi kichik izohni topdim. Bu xabar har oyda bir xil takrorlanadi. Aytgancha, bularga qoʻshimcha tarzda ijtimoiy tarmoqlarda turli idoralar rahbarlari va xodimlari aksiyada ishtirok etayotgani, ishga velosiped yoki piyoda kelgani toʻgʻrisidagi xabarlar ham chiqib turadi. Ammo aksiyada qancha odam tashabbuskor boʻlgani, shu kuni shahar koʻchalarida avtomobillar soni qanchaga kamaygani, zaharli gazlar chiqishi necha foiz qisqargani borasidagi statistik maʼlumotlarga koʻzim tushmadi.

Bu aksiyada hech kim qatnashmayotganini anglatmaydi. Biroq natija kutilganidek emas. Deyarli har oy shu sanada koʻpchilik atay shahar koʻchalarini kuzatadi, “Bugun mashinalar odatdagidan kamayganmi?”, degan maqsadda. Afsuski, koʻchalar odatdagidek avtomobillar bilan gavjum. Yoki haydovchilar bu aksiya haqida xabardor emas (katta ehtimol bilan buning imkoni yoʻq, sababi, bir yildan buyon tadbir haqida har oy xabar beriladi) yoki unda ishtirok etishni ahamiyatsiz deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy davlat maqomi barchaga teng imkoniyat yaratishni talab etadi. Yangi Oʻzbekistonda islohotlarning ilk davridayoq bunga jiddiy qaraldi. Xususan, nogiron fuqarolarga toʻsiqsiz harakat qilishi uchun imkoniyatlar yaratilyapti. Masalan, shaharlarda koʻzi ojizlar uchun ovozi svetoforlar oʻrnatilyapti. Ular yoʻldan oʻtishda maxsus tugmani bosadi va yoʻl ochilganini ovozi bilan biladi. Bu nafaqat qulaylik, balki xavfsizlikni ham taʼminlaydi.

Ushbu oʻzgarishlar termizlik Zuhra Hasanova kabi yurtdoshlarimiz qalbidan ishonch uygʻotmoqda. Z.Hasanova mobil aravada harakatlanadi. Shu bois, u panduslar orqali jamoat joylarida bemalol kira olishi, shaharda erkin harakatlanayotganidan quvonadi. — Biz ham hayotda faol boʻlishni istaymiz. Qulay muhit — biz uchun ishlash, oʻqish, jamiyatga foydali boʻlish imkoni demakdir, — deydi Zuhra Hasanova. — Keyingi yillarda bu borada koʻp oʻzgarishlar boʻladi. Ammo hali ham ayrim muassasalarda moslashuvlik toʻliq taʼminlanmagan. Ular ham asta-sekin oʻzgarishiga ishonaman.

Ha, bugun Termiz faqat tarix va tamaddun markazi, janub gavharigina emas. Balki u inson qadri, tenglikni, mehu muhabbatni oʻz koʻchalarida namoyon etayotgan qulay qiyofadagi shahardir. Inson uchun qulay, erkin va xavfsiz muhit yaratish maqsadida shahar inklyuziv rivojlanish yoʻliga qatʼiy



AVTOMOBILSIZ KUN

OʻZIMIZ TASHABBUSKORG AYLANISHIMIZ KERAK

Qanday boshlangandi?

Istalgan bir kunda shaxsiy avtomobilni uyda qoldirib, kun davomida jamoat transporti yoki velosipedda harakatlanish, yaqin masofaga piyoda yurish orqali ekologiyaga qanchalik foyda keltirish mumkinligi haqida koʻpchilik oʻylab koʻrmaydi. Vaholanki, bugun ekologik muammolarning asosiy omillaridan biri sifatida tilga olinayotgan avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar atmosfera uchun jiddiy xavfga aylangan. Koʻchalarda avtomashinalar koʻpayib, uzundan uzun tirbandliklarni yuzaga keltirayotgani vaziyatni yanada yomonlashtiryapti. Bunga qarshi birgina chora yoki harakat bilan kurashish amri mahol. Ammo kichik-kichik harakatlarni umumlashtirib, katta va kutilgan natijaga erishish mumkin.

Yodingizda boʻlsa, 2018-yilda hukumat qarori bilan “Yoʻl harakati xavfsizligi targʻibot kuni”ni oʻtkazish boʻyicha dastur tasdiqlangan edi. Unda Oʻzbekistonda har oyning uchinchi juma kuni “Avtomobilsiz kun” aksiyasini oʻtkazish belgilangan. Ayni oʻsha yilning 21-sentabr kuni mazkur tadbir yurtimiz boʻylab ilk bor tashkillashtirildi. Keyinchalik ham aksiya haqida bir necha bor eshitdik, ammo bu faqat targʻibot xarakteriga ega boʻlgani bois, unda ishtirok etish majburiy boʻlmagan. Uning targʻibotchilari ham koʻproq ekofaollar va jamoatchilik vakillari edi.

Prezidentimizning oʻtgan yil 21-fevraldagi tegishli farmoni bilan esa har oyning bir ish kuni davomida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasini amalga oshirish belgilandi. Keyinroq aksiyani oʻtkazish uchun har oyning toʻrtinchi chorshanbasi tanlandi va bugunga qadar muntazam oʻtkazib kelinaypti. Maqsad sogʻlom turmush tarzi targʻiboti, shuningdek, atrof-muhitni avtomobillardan chiquvchi zararli gazlardan himoya qilish, katta shaharlarda transport vositalari tirbandligini kamaytirish, jamoat transporti tizimini rivojlantirish masalalariga jamoatchilik eʼtiborini qaratishdan iborat.

Unda barcha yurtdoshlarimiz faol ishtirok etishga chaqirilayotgani boisi ham shunda. Shu kuni odamlar shaxsiy avtomobili oʻrniga jamoat transporti, metro, velosiped kabi atmosferaga kamroq zarar yetkazadigan transport



vositalaridan foydalanishga chorlanadi. Loyiha nisbatan targʻibot ham qilinmoqda. Amaldorlar, davlat tashkilotlari rahbarlari shaxsiy namuna koʻrsatib, odamlarda qiziqish uygʻotayotgandek. Ammo yana oʻsha gap, aholida ixtiyoriy tashabbus, ekologik madaniyat hamon sust. Loyihaning ahamiyatini ogʻli ravishda anglab yetmas ekanmiz, uning faol ishtirokchisiga aylana olmaymiz.

Toʻgʻri, ijtimoiy loyiha ixtiyoriy ahamiyatga ega. Yaʼni qaysidir kunda shaxsiy avtomashinangizni uyda qoldirib, piyoda yurishga sizni hech kim majburlay olmaydi. Biroq bu tashabbusni oʻz ixtiyoringiz bilan amalga oshirsangiz qanday boʻladi? Hech oʻylab koʻrganmisiz, birgina harakat orqali shahar havosi tarkibidagi zaharli gazlar qanchalik qisqarishiga hissa koʻshishingiz mumkin?! Men ana shular haqida oʻylab koʻraman.

Ekologik madaniyat sustroqdek...

Hozir har ikki gapimizdan biri ekologik muammolar bilan bogʻliq boʻlib qolgan. Boʻrttirish boʻlmasin, ammo chindan shu haqda koʻp gapiryapmiz va bunda har gal poytaxtimizda avtomobillar soni ortib, tirbandlik koʻpayib borayotganiga urgʻu beriladi.

sifatida qaralmoqda. Bu muammo Toshkent shahrida ham mavjud va poytaxtimizda tirbandliklar oshib borayotgani kuzatilyapti. Bu ekologiyaga avtotransport vositalaridan katta miqdorda zararli gazlar chiqiyapti degani. Ayniqsa, xalqaro sifat standartlariga javob bermaydigan yonilgʻi turlari atmosfera havosini jiddiy zararlavotgani tahlillarda ham koʻrsatilyapti. Yurtimizda 2026-yilga qadar Ai-80 markali benzindan toʻliq voz kechish talabi qoʻyilgani boisi shunda. Bundan tashqari, ogʻir yuk mashinalari, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshgan avtomobillar hamda Yevro-4 standartidan past boʻlgan yonilgʻini ishlatishning atrof-muhitga zarari kamaytirish mexanizmlari ishlab chiqilishi aytilgan. Qolaversa, poytaxtimizda jamoat transportiga ustunlik berish, avtotransport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar va yoʻllardagi tirbandliklarni kamaytirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilangan.

Bu maʼlumotlardan xabardor kishi “Avtomobilsiz kun” loyihasiga befarq boʻla olmaydi. Hech boʻlmaganda oyda bir marta shaxsiy avtomobildan voz kechib, jamoat transportida harakatlanish orqali salomatligi hamda ekologiya xavfsizligiga hissa koʻshadi. Ijtimoiy loyihaning ahamiyati ham shunda. Ammo har gal ijtimoiy loyihad oddiy aholi ishtiroki sustroq boʻlayotganini tan olishimiz kerak. Atrofingizdagilardan sababini soʻrab, gap qotsangiz, har kimning ishonch bilan keltiradigan biror vaji bor. Hech boʻlmasa, aksiyada qatnashib istagi boʻlganini aytganiga ham quvonasan kishi. “Buning menga nima aloqasi bor, mashina oʻzimga, istaganimcha foydalanaman”, desa ham biror gap aytolmaysiz. Buning barchasi bizga bir oz yetishmayotgan ekologik madaniyat bilan bogʻliq masala. Balki targʻibot yetarlicha boʻlmayotgandir. Har holda koʻchalarda targʻibot bannerlari, eʼlonlar koʻzga tashlanmaydi.

Ana endi oʻylab koʻring, oyda bir oʻtkazilayotgan “Avtomobilsiz kun” aksiyasi koʻproq kim uchun foydali? Albatta, oʻzimiz, salomatligimiz va biz nafas olayotgan atmosfera qatlam uchun. Shunday ekan, ijtimoiy loyihani chin maʼnoda yaxshi anʼanaga aylantirishga hissa koʻshishimiz kerak.

sayr qilishni yoqtiraman. Ijtimoiy loyihaga kelsak, ekologiyani asrashimiz yoʻlidagi yaxshi tashabbuslardan biri deb hisoblayman va keyingi safar anda faol ishtirok etishni oʻylaganman. Umuman, bu tashabbusni oʻzimiz ham ixtiyoriy tarzda tez-tez qoʻllab turishimiz lozim.

Asosiy tashabbuskor — oʻzimiz

Haq gap, tashabbusni shaxsiy amaliyotimizga kiritib, tez-tez qoʻllab turishimiz kerak. Koʻchaga avtomobilsiz chiqish uchun har oyning chorshanbasini kutish shart emas. Ulovlar uzogʻimizni qanchalik yaqin qilmasin, salomatligimiz va ekologik barqarorlik uchun unga baʼzan “dam” berib turish zarar qilmaydi. Qolaversa, piyoda yurish sogʻliq uchun foydali, sogʻlom tumush tarzining asosiy omillaridan biri.

Ilmiy tadqiqotlarning koʻrsatishicha, aynan piyoda yurish ummi uzaytiruvchi mashgʻulot hisoblanib, amerikalik olimlar haftasiga kamida besh marta, kuniga 30 daqiqa yayov harakatlanishni tavsiya qiladi. Piyoda yurishning kayfiyatni koʻtarish, organizmning umumiy holatini yaxshilash, qon bosimi va xolesterin miqdorini meʼyorlashtirish kabi ijobiy taʼsirlarini koʻpchilik yaxshi biladi. Xavfli kasalliklarga chalinish koʻrsatkichini kamaytiradi.

Yaʼni “Avtomobilsiz kun” ijtimoiy loyihasi bugun yurtimizda faol targʻib qilinayotgan sogʻlom turmush tarzining bir qismi hamdir. Xoh piyoda, xoh velosipedda harakatlanish boʻlsin, insonning kun davomidagi jismoniy faolligini oshirib, organizm faoliyatini yaxshilaydi. Ayniqsa, kun davomida oʻtirib ishlaydigan kasb egalari uchun bu juda foydali. Qolaversa, shahrimiz koʻchalarida piyodalar uchun ham, velosiped boshqaruvchilar uchun ham maxsus yoʻlakchalar tashkil qilingan, sharoit yoʻqligini bahona qilolmaymiz.

Olis manzilga qatnashda esa qulay, sifatli jamoat transporti zarur boʻladi. Yaqin yillargacha bu eng ogʻirliq nuqtalarimizdan biri edi. Yillar davomida bu yoʻnalishga yetarli eʼtibor qaratilmagani bois, aholining jamoat transportiga ishonchi bilan birga, foydalanish koʻrsatkichlari ham keskin tushib ketgandi. Ammo bugun jamoat transporti iza tushib oldi, aholining ehtiyojini toʻliq taʼminlash, qamrovini kengaytirish boʻyicha jadal ishlar amalga oshirilaypti.

Maʼlumotlarga koʻra, 2022-yilda Toshkent shahrida avtobuslar harakat tarkiblari soni 1400 tadan koʻprogi tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib, 1900 tadan oshdi. Avvalarl avtobusning oʻzida kuniga 400-500 ming atrofida yoʻlovchi tashilgan boʻlsa, bugungi kunda 1 million 400 mingdan oshdi. Soʻnggi ikki yilda Toshkent shahrida avtobuslar soni ikki barobar, ularning oʻrtacha sigʻimi esa 75 foiz oshdi. Jamoat transportidan foydalanuvchilar soni ikki barobar oshgani odamlarning tizimga ishonchi, harakatlanish faolligi ortib borayotganidan dalolat.

Ayniqsa, shahrimiz koʻchalarida zamonaviy, ekologik toza elektrobususlar koʻpayib borayotganini koʻpchilik ijobiy baholayapti. Hatto ana shu turdagi avtobuslarga qiziqib, jamoat transportidan foydalanayotganlar bor. Bu turdagi transport vositalari, bir tomondan, qulayligi bilan odamlarni jalb qilsa, boshqa jihatdan, salomatlik uchun xavfsiz ekani aksariyatimizni qiziqtiradi.

Ana endi oʻylab koʻring, oyda bir oʻtkazilayotgan “Avtomobilsiz kun” aksiyasi koʻproq kim uchun foydali? Albatta, oʻzimiz, salomatligimiz va biz nafas olayotgan atmosfera qatlam uchun. Shunday ekan, ijtimoiy loyihani chin maʼnoda yaxshi anʼanaga aylantirishga hissa koʻshishimiz kerak.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



qadam qoʻydi. Endi jamoat joylar — yoʻllar, infratuzilmalar koʻzi ojiz, eshitishda muammosi bor yoki aravada harakatlanadigan shaxslar uchun ham toʻsiqsiz, ochiq va samarali muhitga aylanmoqda.

Alisher Orzuboyev yoshi ellikdan oshgan sobiq temiryoʻlchi. U yillar davomida poyezdlar harakati, qatnov xavfsizligi, temirkarvonning grafik boʻyicha yurishini nazorat qildi. Shu ish hayotining mazmuniga aylandi. Ammo taqdir unga sinov yubordi. Salomatligida muammo paydo boʻlgach, avvaliga ishga borish qiyinlashdi, keyin esa butunlay uyda qolishga majbur boʻldi. Biroq Alisher akada hech qachon tushkunlikka tushmadi. U hamon hassaga tayanib, temiryoʻlchilarga xos dadillik bilan shahar koʻchalarida sayr qiladi. Ohista, lekin ishonch bilan qadam bosadi. Uning har bir qadamida hayotga mehr, nafasida erkinlik hissi yashiringan. Alisher Orzuboyev endi nafaqat oʻz hayoti, balki jamiyatdagi ijobiy oʻzgarishlar bilan ham faxrlanadi. Zero, ovozi svetoforlar, piyodalar uchun maxsus yoʻlaklar va nogironlar uchun moʻljallangan belgilar Termizning zamonaviy inklyuziv qiyofasini yaratmoqda. Bunday qulayliklar Alisher aka kabi yurtdoshlarimiz orzulari ushlishiga xizmat qilmoqda.

Ana shunday yurtdoshlarimizdan biri Behruz Bozorovdir. U Termiz shahridagi Tuproqoʻrgʻon mahallasida istiqomat qiladi. 2-guruh nogironi. Shu bois, hayotida qator muammolar bor edi. Bugun ular qisman yengillashdi. Boshqalardan yordam kutmay, erkin harakat qilish imkoniga ega boʻldi. — Avval koʻchalardan oʻtishga qiyналardim. Svetofoarlarda ovozi signal boʻlmagan, piyodalar yoʻlagi yetishmasdi. Shukr, endi hammasi boshqacha, Termiz oʻzgaryapti. Bundan koʻnglimiz togʻdek oʻsdi, — deydi Behruz Bozorov tabassum bilan.



Nogironlar uchun yaratilgan qulaylik, har bir yaxshilangan element faqat qulaylik emas, balki ruhiy quvvat manbai hamdir. Ular oʻzini kerakli, qadrlil his qilishni boshlaydi. Bu esa depressiya, ijtimoiy cheklanish va ruhiy tushkunliklarni kamaytiradi. Psixolog Anvar Joʻranazarov taʼkidlashicha, nogiron inson muhitga emas, balki muhit shu toifadagi shaxslarga mos boʻlishi kerak. Ular muhitdagi “sen ham keraksan” degan ifodani his qilish

orqali yashashga kuch, olgʻa intilishga cheksiz quvvat topadi.

Inson qadri, uning jismoniy imkoniyatlaridan qatʼi nazar, himoya qilinishi va qoʻllab-quvvatlanishi zarur. Bu nafaqat ruhiy jihatdan, balki davlat siyosati va ijtimoiy tizim darajasida ham amalga oshirilmoʻgi dardkor. Shu nuqtayi nazaridan, biz Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiya viloyat boshqarmasi mutaxassisi Ilyos Gʻafforov bilan ham suhbatlashdik. Uning taʼkidlashicha, davlat dasturlari va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar markazida aynan “Inson qadri” degan tushuncha turibdi.

— Masalan, ovozi svetoforlar, piyodalar yoʻlagidagi taktil plitkalar, brayl yozuvlar, aravada harakatlanuvchi fuqarolar uchun panduslar, bularning barchasi ijtimoiy ekspertiza tavsivasi asosida amalga oshirilaypti. Bu jarayon doimiy monitoring va tahlil asosida davom ettiriladi, — deydi Ilyos Gʻafforov.

Bugun mamlakatimizda inson huquqlari, ayniqsa, nogironligi boʻlgan fuqarolarning hayotiga daxldor masalalar davlat siyosati darajasida hal qilinmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun qulay va toʻsiqsiz muhit yaratishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori ana shunday yangicha va adolatlil yondashuvning yorqin ifodasidir.

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda Termiz shahridagi Alisher Navoiy koʻchasi tanlab olinib,

1400 metr qismda sariq rangli yoʻlakchalar tashkil qilindi. Hududdagi chorrahaga jami 8 ta ovozi svetofo r joylashtirildi.

Bundan tashqari, 2025-yilda At-Termiziy koʻchasi tanlab olinib 2200 metr qismi moslashtirilmoqda. Ushbu ishlar viloyatning Denov, Shoʻrchi va Uzun tumanlarida ham olib borilyapti. Koʻzi ojizlar uchun koʻp qavatli uylarning yoʻlaklari va liftlari moslashtirilyapti.


Davlat tashkilotlarining kirish qismida sariq yoʻlaklar va brayl alifbosida yozilgan binoning koʻrsatkichli xaritalari oʻrnatilmoqda. Joriy yil davlat dasturi asosida shu yoʻnalishdagi qator vazifalar belgilab olingan. Xususan, 35 ta umumtaʼlim maktabi, 27 ta maktabgacha taʼlim obyekti, 4 ta sogʻliqni saqlash obyekti, bitta ixtisoslashtirilgan maktab-internat va “Yangi Oʻzbekiston” massivining beshta koʻchasi loyihaiga kiritilgan. Unga koʻra, bu joylarda nogiron shaxslar uchun qulay muhit yaratishga alohida texnik qism ishlab chiqildi. Qurilish taʼmirlash jarayoni esa Tibbiy-ijtimoiy inspeksiyaning viloyat boshqarmasi tomonidan toʻla nazorat qilinadi.

Maʼlumot oʻrinda, 2025-yilda Surxondaryo viloyatining barcha tuman va shaharlarida bittadan namunaviy “Ijtimoiy koʻcha” tashkil etiladi. Masalan, Denov tumanidagi “Sharof Rashidov”, Qiziriq tumanidagi “Mustaqillik” koʻchalarida 2 ming kilometrdan ortiq, Boysun, Qumqoʻrgʻon, Termiz, Sherobod, Shoʻrchi kabi tumanlarda esa ming kilometrdan koʻproq koʻchalarda taʼmirlash, moslashtirish ishlari olib boriladi.

Muxtar aytgandagina, inson qadri — bu faqat nazariy shior emas, bu — amaliy harakat, haqiqiy oʻzgarish, qalbdan chiqqan ehtirom. Toʻsiqsiz muhit — adolatlil jamiyatning belgisidir. Bugun insondan insoningacha qulay hayot sharoiti yaratilayotgani yurtimizda “Yangi Oʻzbekiston” gʻoyasi toʻliq ifodasini topayotganidan dalolat bermoqda.

Sarvar TOʻRAYEV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvda Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslarni yoshlar uchun katta siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega tarixiy voqea sifatida baholash mumkin. Bu uchrashuv yoshlarga yuksak e’tibor va ishonchning amaliy ifodasi bo‘lib, ta’lim, fan, ishbilarmonlik, raqamli texnologiyalar, madaniyat va vatanparvarlik sohalarida ularga keng imkoniyatlar eshigini ochadi.



YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETADIGAN G‘OYAVIY, INTELLEKTUAL VA MA’NAVIY KUCH



Dilmurod ORTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Yoshlarning ilm-fan, texnologiya va ta’limdagi yutuqlari mamlakat taraqqiyotining asosiy garovi sanaladi. Yoshlarimiz dunyodagi eng nufuzli universitetlarda tahsil olmoqda. Bu nafaqat O‘zbekistondagi bilimli yoshlar salohiyati, balki yurtimizning xalqaro nufuzi oshib borayotganini tasdiqlaydi. Bunda yaratilgan imkoniyatlar, jumladan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar berish va milliy dastur asosida yoshlarni yetakchi oliygo‘hlariga tayyorlash tashabbuslari muhim ahamiyatga ega.

Beruniy nomidagi xalqaro maktab tashkil qilinishi, STEM (ilm, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida kvotalar oshirilishi va

sun’iy intellekt sohasida yirik xalqaro dasturlar joriy qilinishi yurtimizda ta’lim tizimi jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitiga moslashgan yangi dasturlar, ayniqsa, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, energetika kabi sohalaridagi xalqaro hamkorlikka asoslangan loyihalar O‘zbekiston innovatsion taraqqiyot yo‘liga qat’iy qadam qo‘yganining yorqin tasdiqi’idir.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, sifatli va xalqaro darajadagi ta’limga keng yo‘l ochish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektli rivojlanirish yangi O‘zbekistonning intellektual poydevorini yaratadi.

Ilm-fan, texnologiya va ta’lim sohalarida mamlakat taraqqiyotining asosiy tayanchi ekanini jahan amaliyotida ham to‘la ma’qullanadigan strategik qarashdir. Bugungi global raqobatda faqat tabiiy resurslarga emas, balki inson kapitaliga tayanadigan davlatlar yutuqti. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni ilmiy va intellektual rivojlanirish yurtimiz kelajagi uchun uzoq muddatli investitsiya hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari nuqtida ta’kidlagan asosiy masalalardan biri yoshlarni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka keng jalb etishdir. Joriy yilda 292 ming ish o‘rni yaratiladigan 8300 ta loyiha amalga oshirilayotgan bo‘lsa, kelgusida yana 500 mingga ish o‘rni tashkil etiladigan 83 milliard dollarlik loyihalar ko‘zda tutilmoqda.

Ish o‘rinlari ochish va mehnat bozorida munosib o‘rin topish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholining salmoqli qismini yoshlar tashkil etishi bilan birga, bandlek masalasi ularning hayotga

ijobiy munosabati, ijtimoiy barqarorlik va davlatga ishonchini ta’minlashda hal qiluvchi omildir.

Yoshlar startaplarini qo‘llab-quvvatlashda moliyaviy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Yoshlar ventur jamg‘armasi, IT parklar, innovatsiya agentliklari orqali prototiplar yaratish va ularni sinovdan o‘tkazishga grantlar ajratilishi, maktablarda “biznes soati” joriy etilishi va “Eng yaxshi kreativ g‘oya” tanlovlari yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada oshiradi.

Ayniqsa, “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari orqali yosh minglab yoshlar mehnat bozorida o‘z o‘rnini topish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu jarayonda banklar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim rol o‘ynamoqda.

Umuman, davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni ish yaratuvchi, iqtisodiy tashabbuskor va mustaqil subyekt sifatida shakllantirishdir.

Startap madaniyatini kengaytirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning eng zamonaviy vositalarini joriy etish, rag‘bat va grant tizimlarini yaratish — bularning barchasi mamlakat iqtisodiyotini yoshlar intellektual kuchi va ijodkorligi asosida rivojlanirish strategiyasidir.

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda ma’naviyat, san’at va madaniyat alohida o‘rin tutadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, kitobxonlik, musiqa, teatr va san’at maktablariga e’tibor orqali yoshlar qalbi va dunyoqarashi boyitilmoqda.

Masalan, “Iqtidor” maktab ansambli tanlovlari, madaniyat va san’at oliygo‘hlariga kirishdagi imtiyozlar, G‘alaba bog‘ida ochilgan “Millat fidoyilari” monumenti kabi tashabbuslar vatanparvarlikni oshirish, yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar rahbarlik lavozimlariga tayyorlanmoqda. “Kelajak liderlari” dasturi doirasida Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida salohiyatli yoshlar tahsil olib, ularni xorijiy tajribalarga jalb etish tizimi shakllantirildi.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning 30-iyun — Yoshlar kunida ilgari surgan tashabbuslari yurtimizda yoshlar siyosati barcha sohalarida izchil va tizimli ravishda amalga oshirilayotganini yaqqol ko‘rsatdi. Ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot, madaniyat va davlat boshqaruviga oid barcha tashabbuslar yoshlarning kelajagiga ishonch va e’tibor namunasidir. Ushbu siyosatning markazida inson kapitali, ya’ni yangi O‘zbekistonda barpo etadigan g‘oyaviy, intellektual va ma’naviy kuch sifatida shakllanayotgan yoshlar turibdi.

Munosabat

O‘zbekistonda yoshlar mavzusi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani barchamizga ayon.

Davlatimiz rahbarining Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi hamda tabrigini yangi O‘zbekistonda yosh avlodning o‘rni, mas’uliyati va imkoniyatlari to‘g‘risidagi keng qamrovli, strategik dastur sifatida baholashimiz mumkin. Uchrashuvda qayd etilgan fikrlar va amaliy chora-tadbirlar zamirida respublikamiz taraqqiyoti markazida yoshlar turganini yana bir bor tasdiqladi. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidori va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ertangi kunga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.



Bahodir MA'MUROV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Prezidentimizning “...Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz tez sur’atlar bilan o‘sib, barcha sohalarida imkoniyatlarimiz ortib borayotganida, hech shubhasiz, siz yoshlarning ham munosib hissangiz bor. Bilagida kuch-g‘ayrat, har bir harakatida azmu shijoat jo‘sh urgan yigitlarimizni, bilim va odobda, azkavovda tengsiz qizlarimizni ko‘rib, har qanday xalq, har qanday davlat bizga havas qilsa arziydi”, degan ta’kidida har bir yoshga nisbatan bildirilgan e’tirof va ishonch yaroq etib ko‘zga tashlanadi. Chunki yoshlar — bugungi taraqqiyotning, ertangi muvaffaqiyatning asosiy tayanchi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, mamlakatimizda yangi islohotlar boshlangan ilk kunlardan oq “ilm — tarbiya — innovatsiya” zanjirini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Bu uch muhim yo‘nalish bir biriga bog‘liq va izchillikda amalga oshirilayotgani aniq natija bermogda. Yoshlarimiz dunyodagi nufuzli oliygo‘hlarida ta’lim olishda jiddiy yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, bugungi kunda 30 nafar yigit-qizlar TOP-10, 500 nafari TOP-100 va 1500 nafari TOP-300 talik oliygo‘hlarida tahsil olmoqda. Bu tarixiy o‘zgarishlar nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki mamlakat intellektual salohiyatining yuksalib borayotganidan darak beradi. Shuningdek, “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish kabi tashabbuslar ta’lim sohasidagi milliy dasturlar samarasini ko‘rsatib



TA’LIM – KELAJAK SARMOYASI

turibdi. “Ta’lim — kelajak sarmoyasi” hozirgi real islohotlar manbaiga aylandi.

Iqtisodiyotimiz rivojida yosh tadbirkorlarning o‘rni tobora ortib borayotir. “Yoshlar biznesi”, “Kelajakka qadam” va “Mening kasbim” kabi dasturlar navqiron avlod vakillarini ish bilan ta’minlash, ularga o‘z iqtidorini namoyon qilish imkonini berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi — yoshlarga yo‘l ko‘rsatish, ustozlik qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Chindan ham, oxirgi yillarda ta’lim, fan, sport, madaniyat, innovatsiya va tadbirkorlik sohalarida yoshlarning faol ishtiroki mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning “Birinchisi va Ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo‘lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermogda”, degan yuksak e’tirofi katta ma’naviy va mafkuraviy yukka ega. “Sizlar yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz”, degan ishonch esa har bir yoshga alohida kuch-g‘ayrat va ilhom bag‘ishlaydi. Bu so‘zlar e’tirofigina emas, shu bilan birga, harakatga, izlanishga, yuksalishga da’vadir.

Bugungi dunyo murakkab, ziddiyatli va xavf-xatarlarga to‘la. Ana shunday vaziyatda tinchlik, inson qadri va adolat har qanday jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday davlatning kelajagi yosh avlodning bilimli, salohiyatli va raqobatbardosh bo‘lishiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda sifatli ta’lim olish, xorijiy tillarni o‘rganish, zamonaviy kasb va hunarlarni egallash uchun maktab va kollejlarda ta’lim standartlari yangilanayotgani, oliy ta’lim tizimi dunyo tajribasiga uyg‘un ravishda faoliyat yuritayotgani, xalqaro ta’lim dasturlari tobora kengayayotgani e’tiborga molik.

Eng muhimi, yoshlarning hayotda munosib o‘rin topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu ularni nafaqat o‘qitish, mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslar sifatida ham kamol topitirish demak. Ta’lim olish, kasb egallash, til o‘rganish, doimiy rivojlanish bugungi yoshlar uchun faqat tanlov emas, balki ijtimoiy zaruradir.

Ilm va iqtisodiyot bilan bir qatorda, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi, madaniy salohiyati va ijodiy qobiliyatiga ham alohida e’tibor berilyapti. “Yosh kitobxon”, “Iqtidor ansambli”, “Jadidlar izidan” kabi tanlovlar, “Turon” teatri faoliyati, 400 mingdan ziyod o‘quvchini qamrab olgan ijodiy dasturlar bu sohada ham tub burilishlar bo‘layotganidan dalolat beradi. Bunday ishlar yoshlarni milliy o‘zlik, tarix va madaniyatga ehtirom, jamiyatda

faol pozitsiya egallashga undaydi. Axborot makonida zararli ta’sirlardan asrash maqsadida Bolalar kontentini rivojlanirish markazining tashkil etilishi bu yo‘nalishdagi amaliy qadamlarning muhim namunasi sanaladi.

O‘zbekiston BMTning “Yoshlar — 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan yetakchi davlatlar qatoriga kirgani, Yoshlar taraqqiyot indeksida esa eng tez o‘sish sur’atiga ega davlat sifatida qayd etilishi mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinganini tasdiqlaydi.

Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz tomonidan yurtimizning tashabbuskor yoshlari qatorida Buxoro davlat pedagogika instituti birinchi bosqich talabasi Ruxshona Dehqonova “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi. Shu kuni institutimizning jismoniy madaniyat fakulteti hududida yangidan barpo etilgan gandbol, voleybol, mini-futbol sport maydonchalari hamda rekonstruksiya qilingan yengil atletika yugurish yo‘lakchasi yoshlarimiz ixtiyoriga topshirildi.

2024-2025-o‘quv yili davomida 1000 dan ortiq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, “Yil talabasi”, “Talent shou” “Ma’rifat maydoni”, “Islohotlar bilimdoni”, Talabalar teatr studiyasi, “Zukko kitobxon”, “Zakovat” intellektual o‘yinlari, “Kitob mening do‘stim” “Rektor kubogi”, “Besh tashabbus olimpiadasi”, “Talabalar ligasi” kabi sport musobaqalari va tanlovlar o‘tkazildi.

Azmu shijoat, sog‘lom dunyoqarash, baxti iqbol nafaqat yoshlarning, shu bilan birga, ota-onalarga, ustoz, murabbiy va butun millatning yutug‘i sifatida baholanishi chuqur ma’naviy va ijtimoiy mazmunga ega. Zero, yuksak natijaga erishgan kelajak avlod vakili ortida unga ishonang va yo‘l ko‘rsatgan yoshi ulug‘larning mehnati, duosi va mashaqqatli bor.

Ayniqsa, shaxsan davlat rahbarining ilg‘or, tashabbuskor yoshlar bilan muvotoq qilib, ularning taklif va g‘oyalari tinglashi, O‘zbekistonda yoshlar faqat ijrochi emas, balki qarorlar qabul qilinishida ishtirok etuvchi faol jamiyat a’zosiya aylanayotganini anglatadi. Bu esa “Yoshlar — mamlakat kelajagi” degan g‘oyaning amaliy ifodasidir.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bugun “tarix navbatini yoshlarga bermogda”. Bu so‘zlar ortida ulkan mas’uliyat, katta imkoniyat va yuksak ishonch yotadi. Ularining bilim, salohiyati va fidoyiligi mamlakatimiz taraqqiyotiga hal qiluvchi kuchga aylanmoqda. Zotan, bilim, mehnat, ijod va tashabbus bilan o‘z taqdirini o‘zlari belgilayotgan, jamiyatdagi islohotlarning real ijrochisi bo‘layotgan bugungi avlod yangi O‘zbekiston poydevorini quruvchi haqiqiy bunyodkorlardir.

TASHRIF QASHQADARYO YUKSALISHIGA YANGI SUR’AT BAG’ISHLADI



Prezidentimiz joriy yilning 19-iyun kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida har bir soha, ayniqsa, ta’lim va yoshlar masalasi, xalq hayoti bilan bevosita bog‘liq real qat’iylarga katta e’tibor qaratildi. Shu sohada ichida yurgan navqiron avlod vakili sifatida, ayniqsa, yoshlarning zamonaviy kasb va mutaxassisliklarni egallab, hayotga dadil kirib kelishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida ilgari surilgani e’tiborimni tortdi. Bu borada ta’lim muassasalariga, xususan, Shahrisabz davlat pedagogika institutiga katta mas’uliyat yuklatildi.

Aytish kerakki, institutimiz o‘z tajribasi orqali ushbu ishonchni oqlab kelmogda. 2023-2024-o‘quv yilida institutni 1018 nafar talaba muvaffaqiyatli tamomlagan va ularning 96 foizi ish bilan ta’minlandi. Bu raqamlar institut jamoasining mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasidagi uzoq yillik fidokorona mehnatining amaliy samarasidir. 2024-2025-o‘quv yilida esa 2023



Charos HAMROYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti matbuot kotibi

nafar bitiruvchining hozirgacha 1178 nafari ishga joylashtirildi.

Bunda viloyatdagi yo‘lga qo‘yilgan aniq mexanizm va tashabbuslar muhim omil bo‘lmoqda. Jumladan, institut tomonidan tashkil etilgan “Karyera kuni” mehnat yarmarkasi bitiruvchilar uchun keng imkoniyat maydoniga aylandi. Unda viloyatdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablari o‘zlaridagi bo‘sh ish o‘rinlarini taklif qilib, yoshlarga amaliy yordam ko‘rsatdi.

Shuningdek, institut huzurida tashkil etilgan “Kelajakka qadam” markazi yoshlarning bandligini ta’minlash, ularning biznes g‘oyalari ro‘yobga chiqarish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida muhim

platformaga aylandi. Ushbu markaz faoliyati doirasida hozirgacha 13 nafar bitiruvchining biznes g‘oyasi moliylashtirilib, ularga jami 122 million so‘m mablag‘ ajratildi. Bu nafaqat individual yutuq, balki yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining yorqin amaliy natijasi bo‘ldi. Shahrisabz davlat pedagogika institutining bu boradagi faoliyati yoshlar kelajagiga yo‘naltirilgan islohotlarning muvaffaqiyatli namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Quvonarlisi shundaki, mamlakatimizda yoshlar bandligini ta’minlash borasida tizimli va izchil yondashuv shakllanmoqda. Bugungi kunda har bir tuman va sektor rahbariyatiga yoshlar bilan individual ishlash, ularni kasbga yo‘naltirish, mehnat bozorida ehtiyojlardan kelib chiqib zamonaviy kasblar bo‘yicha qayta tayyorlash kabi aniq vazifalar yuklatilgan. IT markazlari, kasb-hunar maktablari va ko‘nikmalar markazlari orqali yoshlarning bilim va malakasini oshirishga keng imkoniyat yaratilmoqda. Har bir mahalla uchun alohida bandlek dasturlari ishlab chiqilib, shu joiyning o‘zida ish topish imkoniyati bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilyapti. Bu jarayonda institutimiz ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, institut huzuridagi “Yoshlar markazi”da yondosh Zingiron va Kulollik mahallalari yoshlari uchun turli yo‘nalishlarda to‘garaklar tashkil etilgan. Axborot texnologiyalari va dasturlash kurslari, chet tillarini o‘rganish darslari,



hunarmandchilik, tadbirkorlik va startap loyihalarini rivojlanirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar yoshlarni yangi marralarga undamoqda.

Prezidentimiz tashrifi davomida yoshlar bilan ham uchrashib, ularning fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslarini bevosita tingladi. Ehtiyoj hamda orzu-umidlarni chuqur anglagan holda, har bir hududdagi — viloyat, tuman va mahalla miqyosidagi yoshlarga individual yondashuv zarurligini qat’iy ta’kidladi. Yoshlar — bu jamiyatning strategik kuchi, innovatsiyalarning flagmani, ertangi taraqqiyotning tayanchi ekanini alohida urg‘ulagan davlatimiz rahbari yoshlar bilan ishlash faqat bayramlardagi uchrashuvlar bilangina cheklanmasligi, balki doimiy, tizimli va natijador bo‘lishi shartligini qat’iy bildirib o‘tdi.

Yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida olib borilayotgan bu kabi izchil siyosat hamda amaliy ishlar, albatta, mamlakatimizning barqaror kelajagi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Tashrifda ta’limga katta e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari, xususan, Shahrisabz

shahrida faoliyat yuritayotgan umumta’lim maktablari, kasb-hunar markazlari va oliy ta’lim muassasalarini bevosita borib ko‘zdan kechirar ekan, har bir ta’lim muassasasi zamonaviy standartlarga mos bo‘lishi, yosh avlodning bilim olishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerakligini qat’iy ta’kidladi. Yangi o‘quv dargohlarida nafaqat bino va inshootlar, balki metodika, o‘quv dasturlari, pedagogik kadrlar va texnologik baza to‘liq qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi qayd etildi.

Zamonaviy o‘quv jarayonlarini joriy etish, o‘quvchi va talabalarining amaliy bilimga ega bo‘lishi uchun matematika, fizika, informatika, biologiya va texnologiyalarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor berish belgilandi. Shu maqsadda maktablarda IT-laboratoriyalari, robototexnika markazlari va tahilliy fikrlashni shakllantiruvchi innovatsion maydonchalar tashkil etilishi rejalashtirildi. Ayniqsa, dual ta’lim, ya’ni o‘qish bilan birga ishlab tajriba o‘rtirish tizimini kuchaytirish orqali yoshlar tayyor kadrlar sifatida bozorga chiqish imkoniga ega bo‘lishi kerakligi aytib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari ta’lim sifati o‘qituvchilarsiz bo‘lmashligini chuqur anglagan holda, pedagoglar salohiyatini oshirish, ularning mehnatini qadrlash, ustozlik maktablarini tiklash, zamonaviy o‘qitish metodikalarini keng tatbiq etish yuzasidan alohida topshiriqlar berdi. Mavjud maktablar rekonstruksiya qilinib, yangi ta’lim muassasalari qad rostlaydi. Har bir hududda kasb-hunar markazlari tashkil etilib, o‘rta va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylik kuchaytiriladi.

Prezidentimizning Qashqadaryoga amalga oshirgan galdagi tashrifi oddiy rasmiy safar emas, balki viloyat taraqqiyotining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ni aniq belgilab bergan strategik voqea bo‘ldi. Tashrif doirasida faqatgina mavjud holat baholanmadi, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq reja, mezon va ijro mexanizmlari ishlab chiqildi. Belgilangan chora-tadbirlar xalq farovonligini oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asos bo‘ladi.

Yurakda bir makon bo'ladi. U yerda tonglar she'r bo'lib ochiladi, g'uborlar ilhomga aylanadi, har bir daraxt, har bir bargda so'zlar yashirin. Biz ijodkorlarning yuragimizda ana shunday muqaddas bir manzil bor — u Zomindir.



Farida AFRO'Z,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
raisi o'rnbosari

Mazkur maskan adabiyotga, yosh ijodkor qalbiga bo'lgan mehr, ishonch va istiqbol. Bu — Vatanimizda so'zga berilayotgan yuksak e'tiborning ramzi. "Yil sayin bir makon bu qadar ko'p yurakni uyg'otadimi, bir dargoh bu qadar yuksak ilhom markaziga aylanishi mumkinmi?", desangiz, javobim tayin: ha, agar bu makon — Zomin bo'lsa!

Bugun "Zomin" adabiy seminariga 28 yil to'ldi. Bu yil ham 7-9-iyul kunlari, tog'lar bag'rida yana she'r shabbodasi esadi, yana so'zlar dard bilan, quvonch



Kuni kecha mamlakatimizda Yoshlar kuni nishonlandi. Bu bayram ayni Zomin seminarining ma'naviy samarasini, ijtimoiy qadriyatini yana bir bor yoritib berdi. Prezidentimiz tomonidan Zomin seminarida "pishgan" Islom Eshniyazov, Faxriy Baxtiyrov, Sanjar Toshbekov, Qobiljon Shermatov kabi ijodkorlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

bilan, orzu bilan qog'ozga quyiladi. Mazkur safarga har yili bo'lganidek, orzulari ko'ksida unib turgan yuzlab ijodkorlar yo'l oladi.

Ushbu seminar 1997-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan edi. O'shandan buyon 3000 nafarga yaqin yosh ijodkor kashf etildi, g'oliblarning birinchi kitoblari 10-20 minglab nusxada chop etildi. Bu esa, jahonda kamdan-kam uchraydigan adabiy e'tirofdir. Yosh ijodkorlar orasida Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, "Mard o'g'lon" hamda xalqaro miqyosdagi ko'plab adabiy tanlovlar g'oliblari chiqmadimi deysiz?!

Kuni kecha mamlakatimizda Yoshlar kuni nishonlandi. Bu bayram ayni Zomin seminarining ma'naviy samarasini, ijtimoiy qadriyatini yana bir bor yoritib berdi. Prezidentimiz tomonidan Zomin seminarida "pishgan" Islom Eshniyazov, Faxriy Baxtiyrov, Sanjar Toshbekov, Qobiljon Shermatov kabi ijodkorlar "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bu nafaqat ularning individual yutug'i, balki adabiyot maktabi sifatida Zomin seminarining muvaffaqiyatidir. Ayni natijalar zamirida Prezidentimizning iste'dodga

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



kompyuter orqali emas, qalb bilan yoziladi. Har bir she'r, har bir g'azal, har bir monolog — Vatan bo'lgan muhabbat bilan jaranglaydi. Ishirokchilar ona tilining go'zalligini qaytadan kashf etadi, o'zligini yanada chuqurroq anglaydi. Bu yerda istiqloq ma'nosi — yurak bilan his etiladi. Zomin — bu nafaqat adabiyot, bu vatanparvarlik maktabi, qalbn, ruhni, tilni poklaydigan saboqlarning maskani. Har bir seminar — yangi davr, yangi bosqich. Bu yil ham tog' bag'rida yuraklar uchrashadi. So'zlar dardini topadi. Adabiyotga sodiq qalblar birgalikda hayot va san'at, xalq va Vatan haqida gaplashadi. Va biz yana Zomining qarab yo'l olamiz. U yerda bizni yana o'sha musaffo tonglar, ilhomga to'la yuraklar kutmoqda. Yana bir necha qalam sohibi o'z ovozi topishga yaqin turibdi.

Zomin — yuragimizdagi muqaddas makon. Bu yurak to'xtamaguncha, Zomin ilhomi ham to'xtamaydi.



Erkinjon BOTIROV,
iqtisodiyot fanlari doktori

O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjud va ularning aksariyati UNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimiz betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatidan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlarni ochish mumkin. Mazkur sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mavjud ish o'rinlarini saqlab qolishga qaratilgan. Ushbu hujjatda 2025-yil yakuniga qadar turizm sohasining asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Jumladan, mamlakatga xorijlik 15,8 million sayyohning safarini tashkil etish va turizm xizmatlari eksportini 4 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish hisobiga mahalliy 40 million sayyohning hududlarga safarini uyushtirish hamda qo'shimcha 378 ta turoperator faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

2025-yil iyundan boshlab "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun har oyning ikkinchi haftasidagi shanba va yakshanba kunlari "Oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni" etib belgilab qo'yildi.

Aksariyat mamlakatlar, xususan, bozor munosabatlarga o'tish davridagi mintaqalar iqtisodiyoti uchun turizmni rivojlantirish milliy daromadni diversifikatsiya qilish, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash va ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda.



Turizm hozir dunyo iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan. Ushbu yo'nalishda maqbul va qulay sharoitlar yaratilsa, mamlakatga katta daromad olib keladi. Shu yil 9-aprel kuni Prezidentimiz raisligida hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda so'nggi yillarda mamlakatimiz turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetgani qayd etildi. Bu sohada 2000 dan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. Muhimi, o'tgan yili xorijlik sayyohlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o'tdi.

Joylarda turizmning rivojlanishi valyuta oqimini ko'paytirish, aholi bandligini oshirish hamda kichik va o'rta biznesning kengayishi, infratuzilma talab darajasida yaxshilanishi hisobiga yalpi ichki mahsulot o'sishiga xizmat qiladi. Turizm tufayli infratuzilma rivojlanadi, mahalliy aholining turmush darajasi yaxshilanadi va daromadi ortadi. Xorijiy tillar, milliy meros hamda qadriyatlarimizni bilish orqali aholining madaniy savodxonligi yuksalib boradi. Turizm milliy urf-odatlar, qadimiy an'analar va hunarmandchilikni saqlashga yordam berishi bilan ham ahamiyatlidir. Mamlakatimiz har bir hududining xorijlik sayyohlar uchun nechog'liq jozibadorligini his etgan mahalliy aholida o'z yurtiga qiziqish yanada ortadi.

Turizmning faol rivojlanishi mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshirib, imijini mustahkamlash va madaniyatlararo aloqalarni yaxshilashga yordam berishi bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat a'zolarining ekologik madaniyatini oshiradi va tabiat ne'matlaridan

sifatida e'tirof etiladi. O'zbekistonda o'tmishning turli davrlariga xos noyob tarixiy-me'moriy ansambllar mavjud bo'lib, qadimiy shaharlardagi zamonaviy arxitektura o'tgan asrlardagi milliy me'morchilik yodgorliklari bilan uyg'unlashgan. Bu faqat mamlakatimizga xos xususiyatdir.

O'zbekistonning sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan 12 ta tumani va shahrida turizm markazlari tashkil etilgan. Ularda tunu kun ishlaydigan restorant, kafe, sog'lomlashtirish va basseyn xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda. Zomin, Chimyon, Amirsoy, Miraki kabi kurort zonalar hamda ko'ngilochar majmualarda xalqaro brendlar, milliy ipak matolar, suvenir, zargarlik mahsulotlari do'konlari ochilmoqda. Buning uchun 2027-yil 1-yanvargacha turizm markazlaridagi tadbirkorlardan yer va mol-mulk solig'ini belgilangan miqdordan 90 foiz kamaytirish, 2026-yil 1-martgacha zargarlik va oltin mahsulotlari uchun kerak bo'ladigan asbob-uskunalar va texnologiyalarni bojxona bojidan ozod qilish choralari ko'rilmogda.



samarali foydalanishga imkon beradi. So'nggi yillarda yurtimizda milliy bog'lar, qo'riqxonalar yaratish va ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar timsolida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, yurtimiz ulkan sayyohlik salohiyatiga ega. Davlatimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoda sayyohlik markazlaridan biri

Hududlarda turizm va servis infratuzilmasi juda tez rivojlanayapti. Jumladan, so'nggi sakkiz yilda sayyohlik sohasiga 6 milliard 500 million dollar samoya kiritilib, 130 mingta mehmon o'rni ochildi. Mamlakatda 20 ta turizm qishlog'i faoliyat yuritayapti. Bo'stonliq tumanida "Amirsoy", "Ugam River" turizm zonlari tashkil etildi. Parkent tumanidagi Oltin bel cho'qqisida yangi xalqaro tog'-chang'i zonasi barpo etildi.

Shuningdek, o'tgan yillardan boshlab "O'zbekistonda yana bir kun sayohat" dasturi amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, viloyatlararo turizm obyektlarini o'zaro bog'lovchi "respublika turizm halqalari" hamda tuman va shaharlar o'rtasida "hududiy turizm halqalari" tashkil etilmogda.

"To'rt faslning har birida sayohat" dasturi amalga oshirilib, bahor va kuz fasllarida ekologik, ekstremal, tibbiy va sog'lomlashtirish, yozda suv havzalari va oromgoxlar, qishda ekstremal turizm va tog'-chang'i zonalarining imkoniyatlari targ'ib qilinayapti. Mazkur turizm mavsumlarining ochilishi uchun festivallar uyushtirilmoqda.

Bularning barchasi O'zbekiston turizmi jadal rivojlanayotganidan va bu ishni davom ettirishga mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratilganidan dalolat beradi. Ichki va tashqi sayyohlikning jadal rivojlanishi yurtimizning xalqaro maydondagi mavqei yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 746.
34972 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:45